



Ravshan DJURAYEV,
O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasini dotsenti, PhD

TDSHU professori S.Shadmanova taqrizi asosida

PROCESSING OF LIVESTOCK PRODUCTS IN UZBEKISTAN IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR

Annotation

Globally, the demand for raw materials in various sectors of the national economy, in particular, in food and industry, is growing. The fact that this sector is considered the mainstay of the economy of countries such as Australia, Canada, Cuba, Holland, Russia, where the livestock sector is developed, and covers a large share of the country's exports, increases the importance of the attitude towards the sector. At the moment, increasing attention to the livestock sector is creating positive conditions for providing the population with food and for the development of the country's economy. In this process, the implementation of the programs developed by international organizations is recognized as an important guarantee of the development of the society. The purpose of the research is to reveal the history of livestock feeding in the Uzbek SSR in the years after the Second World War and the changes that occurred in the field. The article was written using the principles of historicity, systematicity, impartiality, and the civilizational approach to the problem, as well as the methods of comparative and problem-chronological analysis. The practical results of the research are as follows: the impact of political and economic changes on the livestock sector was studied for the first time in historiography within the framework of the Soviet years, proposals and recommendations were developed on the identified problems; On the basis of identification and comparative analysis of archival documents, statistical data and periodical press materials on the history of animal husbandry in the Uzbek SSR, the theoretical conceptual basis for studying the history of this industry in the region has been developed.

Keys words: Soviet power, animal husbandry, World War II, national economy, livestock, cattle, pastures, land fodder.

ПЕРЕРАБОТКА ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В мировом масштабе растет спрос на сырье в различных отраслях национальной экономики, в частности пищевой и промышленности. Тот факт, что этот сектор считается опорой экономики таких стран, как Австралия, Канада, Куба, Голландия, Россия, где развит животноводческий сектор, и охватывает большую долю экспорта страны, повышает значимость отношения к сектору. В настоящий момент возрастающее внимание к животноводческой отрасли создает положительные условия для обеспечения населения продовольствием и развития экономики страны. В этом процессе реализация программ, разработанных международными организациями, признается важной гарантией развития общества. Цель исследования – раскрыть историю кормления скота в Узбекской ССР в годы после Второй мировой войны и изменения, произошедшие в этой области. Статья написана с использованием принципов историчности, системности, объективности, цивилизационного подхода к проблеме, а также методов сравнительного и проблемно-хронологического анализа. Практические результаты исследования заключаются в следующем: в рамках советских лет впервые в историографии изучено влияние политических и экономических изменений на отрасль животноводства, разработаны предложения и рекомендации по выявленным проблемам; На основе выявления и сравнительного анализа архивных документов, статистических данных и материалов периодической печати по истории животноводства в Узбекской ССР разработаны теоретические концептуальные основы изучения истории этой отрасли в регионе.

Ключевые слова: Советская власть, животноводство, Великая Отечественная война, народное хозяйство, животноводство, крупный рогатый скот, пастбища, кормовая земля.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH

Annotatsiya

Jahon miqyosida xalq xo'jaligining turli sohalari, xususan, oziq-ovqat hamda sanoatda xomashyoga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Chorvachilik tarmog'i rivojlangan Avstraliya, Kanada, Kuba, Gollandiya, Rossiya kabi davlatlar iqtisodiyotida ham bu soha tayanch hisoblanib, mamlakat eksportining katta ulushini qamrab olganligi sohaga bo'lgan munosabatning ahamiyatini oshirmoqda. Ayni paytda chorvachilik sohasiga e'tiborning kuchayishi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashga hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobjiy sharoit yaratmoqda. Mazkur jarayonda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarning keng amaliyotga joriy etilayotganligi jamiyat taraqqiyotining muhim garovi sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotning maqsadi ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston SSRda chorva mahsulotlarini qayta tayyoralash va sohada yuz bergan o'zgarishlarni ochib berishdan iborat. Maqola tarixiylik, tizimlilik, xolislik tamoyillari hamda muammonga sivilizatsiyon yondashuv, qiyosiy va muammoviy – xronologik tahlil usullaridan foydalanan xolda yozilgan. Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilardan iborat: siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarning chorvachilik sohasiga ta'siri tarixshunoslikda ilk bor sovet yillari doirasida o'rganilib, aniqlangan muammollar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan; O'zbekiston SSRda chorvachilik tarixiga doir arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va davriy matbuot materiallarini aniqlash, qiyosiy tahlil qilish asosida hududda mazkur tarmoq tarixini o'rganishning nazariy konseptual asoslari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyyati, chorvachilik, ikkinchi jahon urushi, xalq xo'jaligi, yilqichilik, qoramollar, yaylovlar, yer ozuqasi.

Kirish. Qadimdan chorvachilik aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo'lgan talabni qondirgan va hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarini rivojlantrishda muhim ahamiyat kasb etgan[1]. Sovet davrida chorvachilik aholi uchun oziq-ovqat va yengil sanoat uchun xomashyo beradigan asosiy manbalardan biri bo'lib qolgan[2]. 1945-1951-yillarda chorva mahsulotlarini olish va ularni qayta ishslash jarayoni turlicha kechdi. Jumladan, 1940-yillarda bu yo'nalishga e'tibor kamroq berilgan bo'lib, 1950-yillardan boshlab go'sht, sut, teri, chorva ichaklari hamda boshqa masulotlarni ko'paytirishga qaratilgan loyihiblar amalga oshirila boshladi. Mazkur o'zgarishlarning o'ziga xos

bir qancha sabablari mavjud edi. Xususan, 1940-yillarda asosiy chorva mahsulotlar aholi qo'lida bo'lib, ular o'z ehtiyojlar uchun o'zlar chorva mahsulotlarini yetishtirsa olgan. 1950-yillardan boshlab asosiy chorvalar soni kolxozi va sovxozlarda yig'ilma boshlandi va bu holat chorvalar mahsulotlarini markazlashtirilgan holda olish imkoniy yaratgan. Shuni aytib o'tish joizki, sovet davrining barcha davrlarida chorva mahsulotlarini olish va ularni qayta ishslashga alohida ahamiyat berilgan[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaz manfaatlarining milliy chekka o'lkalar manfaatlaridan ustun qo'yilganligini shu

narsadan ham bilish mumkinki, “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” tayyorlagan har bir teri xomashyosi uchun 85 tiyindan haq oladigan bo'lsa, qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu miqdor 1 rubl 48 tiyinni, Moskva va Leningradda 1 rubl 75 tiyinni tashkil qilgan. Teri xomashyolarini tayyorlash bo'yicha rejalgarda muvofiq amalga oshirilgan.

Sut mahsulotlarini ko'paytirish va ularni qayta ishslash sovet hokimiyatining barcha davrlarida muhim ahamiyat kash etgan[4]. “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” tomonidan 1939-1950-yillar uchun sut mahsulotlari ta'minotini yaxshilash maqsadida respublika bo'yicha jami 323 bosh sog'i singirlar tayyorlab qo'yildi. Ular asosan, Buxoro va Toshkent okruglari hamda Qo'qon shaharlaridan saralab olindi[5]. Shu bilan birga, ishchi otlarni tayyorlash rejasiga ham kiritilib, dastlab 1939-1950-yillarga mo'ljallagan ushbu reja 10.000 bosh qilib belgilangan bo'lsa, keyinchalik 5.000 boshga, yil oxiriga kelib esa 2.000 boshga qisqartirilib borildi.

Chorva mollaridan ko'p mahsulot olishning talablaridan biri chorvalarni yetarlicha ozuqa bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi mahsulotlarni olishda va qayta ishslashda ularning texnik bazasi qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liq edi[6]. 1929-yil 17-22-avgustdagdi Savdo Xalq komissarligi qaroriga binoan, “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” 1929-1930-yillar uchun 100.000 pud - sut, 20.000 pud- yog', 14.00 pud- smetana, 11 mln. dona -tuxum hajmidagi mahsulotlarni tayyorlab, markazga topshirish to'g'risida topshiriq oldi[7]. Lekin yuqoridaq mahsulotlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan texnika va asbob-anjomlar masalasida yana muayyan qiyinchiliklarni paydo bo'la boshladi. Markazdan jo'natilishi lozim bo'lgan inventarlarning kichik partiyasigina Respublikada qabul qilindi, xolos. Shuningdek, sut va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi mutaxassislarining respublikada yetishmasligi davlat buyurtmalarining bajarilishida to'siq bo'lib turdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1930-yil holatiga ko'ra, belgilangan shartnomadagi tuxunning 14.6 % i, yog'ning 7,3 foizi, smetananing 3,6 foizi, sutning 12,8 foizi tayyorlangan edi[8].

“O'zbekiston chovachilik ittifoqi” rayon soyuzlari, shirkatlari va maxsus yig'uvchilar orqali qishloqlardan qo'y va sigir ichaklarini yig'gan. Yig'ilgan va ishlov berilgan ichaklar “Turli mahsulotlarni eksport qilish” (Raznocksport) muassasasiga berilgan. Mazkur ikki tashkilot o'tasida har yili shartnoma tuzilib, mana shu hujjat asosida qo'y va sigir ichagi sanoatda qo'llanilishi uchun yig'ilgan. 1929-1930-yillarda mazkur yo'nalishda bir qancha muammolar yuzaga keladi. Mazkur muammolardan biri “O'zbekiston chovachilik ittifoqi”ning talabi bilan tayyor qo'y ichaginiq narxini ko'tarish tashabbusi edi. Bunda tayyorlangan ichaklarning sifati oshganligi uchun ularning narxi qimmatroqqa tushgan. O'zbekistonda tayyorlangan ichaklar taalluqli xorijiy bozordagi konditsiya (tovar yoki mahsulotni qabul qilish uchun qonun yoki shartnoma bilan belgilangan shart va talablar) oshib borgan. Shu sababli “Turli mahsulotlarni eksport qilish” muassasasi bir necha marotaba “O'zbekiston chovachilik ittifoqi”dan bu talablar ichak mahsulotlarining soltilish narxiga emas, balki ichak yetishtiruvchi chorva xo'jaliklarni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan. Ichakni tayyorlashda va uni qayta ishlashda “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” tayyor ichak narxining 25 foizini olayotgan bo'lgan. “O'zbekiston chovachilik ittifoqi”ning olgan mazkur summaning 6 foizi muassasaning tashkiliy va savdo xarakatlari uchun, 6 foizi rayon soyuzlariga va qolgan 13 foizi shirkatlarga sarflangan. Shuni qayd etish kerakki, shirkatlardan ichak ishlab chiqarmagan yoki uni qayta ishlagagan. Shu sababli shirkatlarga sarflangan 13 foiz pul ichakning bozor narxi hisoblangan 1 rubl 4 kopeek asosida emas, balki ichak tayyorlanish summasi bo'lgan 42 kopeek asosida hisoblangan. Bunda ichak tayyorlash xarakati 30 kopeekni tashkil etgan. Buning ustiga ichak tayyolashda yuzaga keladigan qo'shimcha xarakatlarning 10 foizini “Turli mahsulotlarni eksport qilish” muassasasi qoplagan. Natijada shirkatlardan faqatgina foyda olish bilan shug'ullanib, xarakatlarga mablag' ajratmagan. Bu esa o'sha davrda ichakning xalqaro savdosini bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning noroziligiga sabab bo'lgan. Qo'y

ichaginiq o'rtaча bozor narxi 1 rubl 4 kopeek bo'lgan. “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” mazkur bitta ichakni sotish jarayonida jami 94 kopeek sarf etgan. Shundan 42 kopeek ichakni tayyorlash uchun, 30 kopeek ichakni hududlardan yig'ish va yetkazib berish xizmati uchun, 19 tiyin mahsulotni qayta ishslash uchun hamda 3 kopeek qo'shimcha xarakatlarning uchun sarflangan. O'sha davr iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislar fikriga ko'ra, bozorda qo'y ichagiga bo'lgan yuqori talab sababli mazkur sohada foyda 100-150 foiz bo'lgan[9].

Shuningdek, qishloqlarda qo'y va sigir ichagini yakka tartibdagi shaxslar tashkillashtrilmagan holda yig'ish va ularni qayta ishslash hollari uchragan. Bunda ichak yig'uvchilarga past oylik maosh berilishi hisobiga ichak tayyorlash xarakati 20-25 kopeekka to'g'ri kelgan. Biroq mazkur hollarda ichaklarga maxsus ishlov berish amaliyoti sifatlari bajarilmagan. Sovet ma'muriyati ichakni qayta ishlovchi qishloqlarni qamrab olish va ichak tayyorlash uslublarni markazlashgan holda olib borish ishlarni olib borgan. Shu sababli barcha hududlarda ichak ishlab chiqaruvchi punktlar tashkil etish masalasi ko'tarilgan. Ichakni qayta ishlovchi xo'jaliklar daromadi ichak eksportiga bog'liq bo'lgan va shu sababli “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” va “O'zbekiston davlat savdosini” tashkilotlariga qayta ishlangan ichaklarni yuqoriqo narxda xarid qilishga qodir xaridorlarni topish vazifasi yuklatilgan[10].

Qo'y ichagidan farqli ravishda mol ichagi ichki bozor uchun ishlab chiqarilgan. Buning bir qancha sabablari mavjud bo'lgan. Xususan, jahon bozorida mol ichagiga bo'lgan talab kamroq bo'lgan. Boshqa tomonidan, hududlardi qayta ishlangan mol ichaginiq hajmi kichik bo'lib, bu jahon bozorida raqobatlashishga to'sqinlik qilgan. Bundan tashqari, ichki bozorda go'sht va tayyorlangan kolbasa mahsulotlarni taqchil bo'lganligi uchun mol ichagini eksport qilishdan avval savdo nazorat tashkiloti bilan kelishish zarur bo'lgan. Mol ichagini ishlab chiqarish va uni sotish jarayoni “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” tomonidan olib borilgan. 1 metr mol ichagi bozor narxi 1 rubl 63 kopeek bo'lgan. Odatta “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” mol ichagi yig'ish, tayyorlash va qayta ishslash sohasidasi zarar ko'rgan. Masalan, bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, ichakni qayta ishlovchi xodim xizmati uchun 1 rubl 18 kopeek olib olib natijada uning rentabilitlik holati tushib ketgan[11].

Chorva mollarining ichagi bilan bog'liq ma'lumotlar sovet davri adabiyotlarida juda ham kam tadqiq etilgan bo'lsa, chorva go'shtlari, terisi va sutiga doir statistik ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda salmoqli o'r'in egallaydi[12]. Biroq, mazkur ishlarning aksariyati ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga taalluqli bo'lib, 1920-1940-yillardagi chorva mahsulotlari doir ma'lumotlar adabiyotlarda kam uchraydi. Shu sababli mazkur masalani arxiv manbalariga asoslangan holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, 1945-1951-yillarda chorvalardan bir qancha mahsulotlarni olingen bo'lib, ular iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimdan O'zbekistonda chovachilik bilan shug'ullangan chorvadorlar turli mahsulotlar olib va ularni ayrimlari oilaning kundalik turmush tarzida foydalilanigan bo'lsa, ayrim qismi bozorga olib borib sotilgan. 1920-yillarning oxirlaridan boshlab chorva mahsulotlarni mutnazam ravishda markazlashtirilgan holda yig'ish ishlarni olib borilgan. Jumladan, “O'zbekiston chovachilik ittifoqi” hududlardan chorva mahsulotlarni yig'ib, ularni “Turli mahsulotlarni eksport qilish” tashkilotiga sotgan. O'z navbatida mazkur muassasa chorva mahsulotlarni qayta ishlab, ularni eksport qilgan. Biroq bu jarayonda chorvadorlar va chorva mahsulotlarni joylardan yig'uvchi tashkilot va yakkta tartibdagi shaxslar norozi bo'lgan. Chunki “Turli mahsulotlarni eksport qilish” muassasasi bu tizimda xizmat qiladigan shaxslarga kam miqdorda pul to'lab, ishlab chiqarishda katta foya olib. Bu jarayon asosan ichak va terilarni qayta ishslash tarmog'i bilan bog'liq edi. Bu ikki mahsulotdan farqli o'laroq jun mahsulotlari yakka tartibdagi shaxslar va aholi tomonidan yig'ilgan va qayta ishlangan. Bundan tashqari, 1940-1950-yillarda chorva go'shtlari hajmini ko'paytirish ishlari katta ahamiyat berildi.

ADABIYOTLAR

- Қабулов Э. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларидаги Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.27.
- Дмитровская М. Сермаҳсул чорва моллар етишишириш. – Тошкент, 1956. – Б.5.
- Кадырова М. История развития животноводства в Узбекистане (80-е годы). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1993. – С.4.
- Кадырова М. История развития животноводства в Узбекистане (80-е годы). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1993. – С.5.
- ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иши, 22-варак.

6. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С.3.
7. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 31-варак.
8. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 32-варак.
9. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 1-2 вараклар.
10. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 4-варак
11. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 4-5- вараклар.
12. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. - 16 с.; Ахмедов Н. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие общественного животноводства (1966-1970 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 1973. – 26 с.



Sitora MAVLANOVA,

O'zMU O'zbekiston tarixi kefedrasi tayanch doktoranti

E-mail: mavlanovasitora247@gmail.com

T.f.f.d., dotsent A.A Insopov taqrizi asosida

XALQARO MIQYOSDA MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARINING YUNESKO TASHKILOTI TOMONIDAN MUHOFAZA QILINISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro miqyosda moddiy madaniy meros obyektlarining YUNESKO tashkiloti tomonidan muhofaza qilish faoliyatining yo'ilga qo'yilishi, "Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya"ning qabul qilinishi, O'zbekiston tomonidan bu konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi, "Butunjahon merosi" qo'mitasining tashkil qilinishi va jahon merosi ro'yxatining tuzilishi, meros obyektlarining turlari, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita faoliyati, o'zarlo xalqaro hamkorlik aloqalari hamda turizim faoliyatidan eng ko'p iqtisodiy foyda oladigan mamlakatlar statistikasi keltirib o'tilgan. Shuningdek, tarixiy yodgorliklari yo'q bo'lib ketish xavfi eng yuqori bo'lgan davlatlar haqidagi ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, moddiy-madaniy meros, qadriyat, konvensiya, ratifikatsiya, nomoddiy meros, Butunjahon merosi qo'mitasi, turizim, xalqaro hamkorlik, BMT, YUNESKO, ICOMOS, IUCN.

МЕЖДУНАРОДНАЯ ОХРАНА ОБЪЕКТОВ МАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ЮНЕСКО

Аннотация

В данной статье рассматривается создание организацией ЮНЕСКО охраны объектов материального культурного наследия на международном уровне, принятие «Конвенции об охране всемирного культурного и природного наследия», ратификация этой конвенции Узбекистаном, дополнение «Всемирное наследие», организация комитета и структура списка всемирного наследия, виды объектов наследия, деятельность межправительственного комитета по охране нематериального культурного наследия, отношения взаимного международного сотрудничества и приводятся статистические данные стран, которые получают наибольшую экономическую выгоду от туристической деятельности. Также описаны страны, исторические памятники которых находятся под наибольшей угрозой исчезновения.

Ключевые слова: Международные НПО, материальное и культурное наследие, ценность, конвенция, ратификация, нематериальное наследие, Комитет всемирного наследия, туризм, международное сотрудничество, ООН, ЮНЕСКО, ИКОМОС.

INTERNATIONAL PROTECTION OF MATERIAL CULTURAL HERITAGE OBJECTS BY UNESCO

Annotation

In this article, the creation of protection of material cultural heritage objects by the UNESCO organization at the international level, the adoption of the "Convention on the Protection of the World Cultural and Natural Heritage", the ratification of this convention by Uzbekistan, the addition of "World Heritage". The organization of the committee and the structure of the world heritage list, the types of heritage objects, the activities of the intergovernmental committee on the protection of intangible cultural heritage, international cooperation relations and the statistics of the countries that receive the most economic benefits from the activities of tourism are mentioned. Also, the countries whose historical monuments are at the highest risk of extinction are described.

Key words: International NGOs, material and cultural heritage, value, convention, ratification, intangible heritage, World Heritage Committee, tourism, international cooperation, UN, UNESCO, ICOMOS, IUCN.

Kirish. Tarixiy madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlashda bugungi kunda jahon miqyosida nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab mamlakatlarda nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirishda amaliy ko'mak berish bilan bir qatorda ijtimoiy madaniy sohada davlatning asosiy tayanchiga aylanib bormoqda. Dunyo mamlakatlarida tarixiy madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash amaliyotining joriy etilishida ham aynan xalqaro nodavlat notijorat tashkilot hisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy tuzilmalaridan bo'lgan YUNESKOning faoliyati muhim ahamiyatiga ega.

O'tgan yillarda Jahon merosini saqlash va himoya qilish zarurati o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Madaniy va tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylash masalasi har qanday rivojlangan davlat uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, har bir mamlakatning o'ziga xos san'at asarlari, madaniy yodgorliklari va qadriyatlari asrlar davomida shakkannib kelgan. So'nggi yillarda globallashuv natijasida davlatlarning tez sanoatlashushi va jalal urbanizatsiya jarayoni mamlakatlardagi tarixiy-madaniy merosining jiddiy zarar ko'rishi yoki yo'q qilinishiga olib kelmoqda. Natijada, madaniy obyektlarni faqtgina milliy doirada himoya qilish etarli va samarali bo'lmay qoldi. Bu esa sohadagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi xalqaro miqyosdagi tuzilma tashkil etilishi tarixiy zaruriyatga aylanganligini ko'rish mumkin. YUNESKO tashkiloti tomonidan 1972-yil 16-noyabrda qabul qilingan "Jahon madaniy va tabiiy

merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya"ning qabul qilinishi xalqaro miqyosda moddiy madaniy yodgorliklarni tiklash va saqlash amaliyoti joriy etilishida muhim qadam bo'ldi [1]. Bu konvensiya 1975-yil 17-dekabrdan kuchga kirgan bo'lib, 1978-yilda ilk bor butunjahon merosi ro'yxatga madaniy meros yodgorliklari ishlab chiqilgan alohida dastur asosida kiritilishi belgilab qo'yildi. Dasturning asosiy maqsadi madaniy meros yodgorliklarini saralash, muhofaza qilish va kelajak avlod uchun saqlab qolishdan iborat hisoblanadi va butun dunyoda madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik uchun ham asosiy hujjat vazifasini bajaradi.

Bugungi kunga kelib globallashuv davrida moddiy madaniy meros obyektlarini tiklash va kelajak avlod uchun saqlab qolish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki noodatiy derajada tabiatning tez ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya va tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar butunjahon merosi obyektlari uchun doimiy xavf tug'dirmoqda. Shu sababi xalqaro miqyosda moddiy madaniy meros obyektlarini insoniyat uchun muhim qadriyat sifatida asrab-avaylash, ularni alohida ro'yxatga kiritish amaliyoti joriy etildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Asrlar davomida insoniyat uchun meros bo'lib kelayotgan tarixiy madaniy yodgorliklarni tiklash, saqlash va muhofaza qilish faoliyatining dunyo mamlakatlarida joriy etilishi haqida K. Matsura o'zining "Jahon

merosi: eng g'ayrioddiy tarixiy joylar uchun to'liq qo'llanma" nomli asarida YUNESKO tomonidan jahon merosini saqlash bo'yicha konvensiyaning qabul qilinishi, madaniy va tabiiy merosni aniqlash, himoya qilish va saqlashni rag'batlantririshda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi yoritib berilgan. Shuningdek, bu konvensiya YUNESKO tomonidan dunyoning qimmatbaho madaniyati va biologik xilmaligini himoya qilish maqsadini ham amalga oshirish, kelajak avlodlar ham bu merosdan bahramand bo'lislari uchun tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish, tabiatni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarga katta turki bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi[2].

E. Rey, L. Jordon va A. Klaudiya o'zlarining "Jahon xotirasi" dasturi: asosiy jihatlar va so'nggi o'zgarishlar nomli bibliografiyasida esa tarixiy yodgorliklarning jahon merosi ro'yxatiga kiritilish mezonlari, asosiy qo'yilgan talablar va madaniy merosni asrash borasida davlatlarga qo'yilgan asosiy ma'jburiyatlarni yoritib bergenligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ushbu mualliflar tomonidan butunjahon merosini ro'yhati qayta ko'rib chiqilgan bo'lib, so'nggi yillarda topilgan madaniy meros obyektlari ushbu biliografiya kiritilganligi haqida ma'lumotlarni olish imkonini beradi[3].

Shubilan bir qatorda H. Katia o'zining "Dunyodagi birinchi 12 ta meros obyektnini o'rganish" nomli risolasida 1972-yil qabul qilingan "Jahon madaniy va tabbiy merosini muhofaza qilish konvensiyasi"ga kiritilgan dastlabkli 12 ta meros obyekti haqidada ma'lumot berib o'tgan hamda davlatlar tomonidan tarixiy madaniy merosini muhofaza qilish faoliyatini "ajoyib umuminsoniy qadriyat" deb alohida ta'kidlab o'tgan [4].

Tadqiqotchi A.A. Insopov o'zining "O'zbekistonda fuqorolik jamiyatini barpo etishda davlat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi (1991-2016 yy.)"^[5] mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja olish uchun yozgan dissertatsiyasida O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining yuzaga kelishi, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga a'zo bo'lishi, birligakdagi faoliyati va davlat va nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy sherikligi masalasiga ham o'z e'tiborini qarabat o'tish bilan bir qatorda mustaqillik yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tarixiy madaniy merosni asrab avaylashda davlat bilan ijtimoiy sheriklik masalalarini ham yoritib o'tadi.

Muhokama. Butunjahon merosi obyekti Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lif, fan va madaniyat tashkiloti hisoblangan YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan har qanday hudud yoki obyektlar hisoblanadi. Ushbu obyektlar "Jahon madaniy va tabiiy meroesini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya"ga muvofiq umuminsoniy qadriyat sifatida belgilangan. Butunjahon merosi konvensiyasining qabul qilinishining asosiy sababi Asvon baland to'g'onining qurilishi bo'ldi. 1959-yilda Birlashgan Arab Respublikasi va Sudan hukumatlari Misr Nubiyanining qadimiy obidalari va yodgorliklarini qutqarishda yordam so'rab YUNESKOga murojaat qilisdi. Buning asosiy sababi mazkur hudud Asvondagi yangi qurilayotgan to'g'on ortida joylashgan katta ko'l tomonidan vayron bo'lish xavfi ostida qolayotganligi bilan bevosita bog'liq edi. Ushbu hududda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar YUNESKO tomonidan amalga oshirilayotganligi ham mazkur konvensiyani ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishiga muhim turki vazifasini bajarib berdi. Bundan tashqari, Misrning qadimiy shaharlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va qazishma ishlari natijasida Buhenda qadimgi qirollik shaharchasi ham topilganligi xalqaro miqyosda madaniy meroes obyektlarini saqlab qolinishi masalasini kun tartiba olib chiqdi.

Arxeologik izlanishlar natijasida qabristonlar va qadimiy uylar shaklidagi turar joy qoldiqlarining ko'plab topilishi tarixiy ahamiyatga ega madaniyatlar haqidagi bilimlarni boyishiga sabab bo'ldi. Olib borilgan tadqiqotlar va saqlab qolingga madaniy meroj obyektlarining ilmiy ahamiyati, xalqaro muvofiqlashtirish darajasi va insoniyatni

o'tmish tarix haqidagi ma'lutlarini kengayishi natijasida davlatlar o'rtasida global madaniy merosni saqlash va himoya qilish uchun doimiy mehanizm zarur degan xulosaga olib keldi [6].

Dastlab 1965-yilda xalqaro konferensiya da eng muhim masalaga aylanib bo‘lgan butunjahon merosini asrash va tiklash masalasida xalqaro miqyosdagi tashkilotga juda katta ehtiyoj tug‘ilganligi ta‘kidlab o‘tilgan edi.

1966-yilga kelib shunga o'xshash tashabbuslar 1948-yil tashkil etilgan xalqaro notijorat tashkilot bo'lgan "Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi" (IUCN) va 1965-yil tashkil etilgan yana bir xalqaro notijorat kengash hisoblanadigan "Yodgorliklari va diqqatqa sazovor joylar bo'yicha xalqaro kengash" (ICOMOS) tomonidan taklif qilinadi ammo yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. So'ngra 1966-yil noyabr oyida Venetsiyada halokatli suv toshqini sodir bo'lгach butun dunyo e'tibori insoniyat merosini saqlab qolish masalasiga qaratildi.

1972-yil Stokholmda bo'lib o'tgan BMTning konferensiya-sida tarixiy madaniy meros muhofazasi bo'yicha dastur qo'llab-quvvatlandi va 1972-yil 16-noyabrda YUNESKO "Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya"ni qabul qilindi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, asrab qolinishi lozim bo'lgan obyektlar ro'yxati tuzilgan bo'lib, ro'yxtagta dastlab 12 ta tarixiy obyekt kiritildi. Ishlab chiqilgan dasturga asosan ro'yxtagga kiritilayotgan obyektlar uch toifaga bo'linishi belgilab qo'yildi. Ushbu toifalar qo'yidagilar etib belgilandi:

1) Madaniy meros obyektlari ya'ni, asosan inson qo'li bilan yaratilgan me'moriy yodgorliklar;

2) Tabiiy ya'ni, tabiat yaratgan tog' jinslari, g'orlar, ko'llar, lar va sharsharalar;

3) Aralash ya'ni, tabiat va inson hamkorligida yaratilgan tlardir.


Natijalar. Butunjahon madaniy merosini asrash va tiklash iqbaliini surʼada jiddallektirish muddadiiga dastlab “Yaxshiliklar u-

ishlarini yanada jadallashtirish maqsadida dastlab “Yodgorliklari va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro kengashi” (IKOMOS) tomonidan 1982-yilda tashabbus bilan chiqiladi va unga ko’ra alohida merosni asrash kuni g’oyasi ilgari suriladi. Shundan so’ng, 1983-yil YUNESKO Bosh konferensiyasining 22-sessiyasida “Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash kuni” etib belgilanishi tasdiqlanadi. Unga ko’ra YUNESKO tomonidan butun dunyoda 1983-yil 18-apreldan boshlab alohida madaniy meros yodgorliklarini kuni sifatida qabul qilinadi.

Har yili butun dunyo mamlakatlarda 18-aprel xalqaro meros kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bugungi kunda 168 ta mamlakatning jami 1223 ta obyekti YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ularning har biri butun dunyo uchun katta ahiamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, har yili ro'yxatga kiritilgan obyektlarning muhofazasi bilan bog'liq faoliyat YUNESKO tomonidan nazorat qilinib, meros obyektlari muhofazasi alohida dastur asosida amalga oshiriladi.


YUNESKONing “Jahon merosi” ro’yxatiga kiritilgan meros obyektlari soni bo‘yicha Italiya davlati hozirda 1-o‘rinda turadi. Italiyadagi 60 ta meros obyekti ro’yxatga kiritilgan va bularning 54 tasi madaniy, 6 tasi tabiiy meros obyektlaridir.

Shuningdek, Italiyada insoniyat madaniyat uchun juda muhim sifatida tan olingen Rim, Neapol va Siyena kabi ko'hnaga butunlar ham mavjud. "Jahon merosi" ro'yxatida Italiyadan so'ng 2-a Xitoy davlati turadi. Xitoyning jami 59 ta obyekti jahon merosi tigiga kiritilgan. Ularning 40 tasi madaniy, 15 tasi tabiiy va 4 tasi h'meros obyektlari hisoblanadi [6]. Keyingi o'rinnlarda Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Hindiston, Meksika va Buyuk Britaniya slari joy olgan. Yaqidagi jadvalda "Jahon merosi" ro'yxatiga qagan madaniy, tabiiy va aralash meros obyektlar sonining davlatlar ha taqsimoti keltirilgan.



O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktobrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti YUNESKOga a'zo bo'ldi. "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya 1995-yilning 22-dekabrida O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilindi. Konvensiyaga doirasida dastlab O'zbekistondagi 4 ta me'moriy majmua – Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrizabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan edi. 2023-yilda esa "Buyuk Ipak yo'li: Zarafshon - Qoraqum yo'lagi" ham jahon madaniy meros ro'yxatiga qo'shildi. Respublika hududidagi 2 ta tabiiy meros obyekti ham "Butunjahon merosi" ro'yxatiga kiritilgan. Ular 2016-yil "Ugom-Chotqol milliy bog'i" va 2023-yilda "Turonning qishki sovuq cho'ilari" tabiiy meros obyektlari sifatida YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan.


Shu bilan bir qatorda O'zbekiston 2008-yilda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga ham a'zo bo'ldi. Unga ko'ra "Insoniyat nomoddiy madaniy merosi" ro'yxatiga mamlakatimiz hududidagi 6 ta obyekt kiritildi. Ular: 1)



Shunisi ham e'tiborliki, meros obyektlarining muhofaza qilinishi davlatlar iqtisodiga ham katta foyda olib keladi. Dunyoning eng mashhur tarixiy shaharlarida iqtisodiyotni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri turizm faoliyati hisoblanadi. Butunjahon turizm

Shashmaqom (2008), 2) Boysun madaniy muhiti (2008), 3) Navro'z (2009), 4) Katta ashula (2009), 5) Askiya (2014), 6) Palov milliy taomi (2016) shular jumlasidandir. Shu bilan birlgilikda nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga dorbozlik, iqat (qo'lda bajariladigan murakkab tikish texnikasi) ham kiritilishi ko'rib chiqilmoqda. 2022-yil yuqorida ta'kidlab o'tilgan konvensiyaga a'zo davlatlar Bosh assambleyesining 9-sessiyasida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita"ga a'zolikka saylandi. Jami 5 ta nomzod mamlakatlar orasida O'zbekistonga eng ko'p ovoz berilganligi muhim ahamiyatga egadir. Bunda O'zbekiston 105 ta, Slovakia 94 ta, Estonia 69 ta, Bolgariya 26 ta, Bosniya va Gersegovina 9 ta ovoz oldilar va faoliyat muddati 4 yil ya'ni 2022-yildan 2026-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Hozirda O'zbekistonning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlari soni jami 7 tani tashkil qiladi va Markaziy Osiyo davlatlari ichida bu eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Quyidagi jadvalda Markaziy Osiyo davlatlarning "Butunjahon merosi" ro'yxatiga kiritilgan obyektlari soni keltirilgan.




YUNESKO tomonidan yo'q bo'lib ketish xavfi ostida bo'lgan obyektlarning ham alohida ro'yxati shakillantiriladi va davlatlarga alohida murojat bilan chiqib ogohlantiriladi. 2023-yilgi "Butunjahon merosi" qo'mitasining statistik ma'lumotlariga ko'ra Suriya, Liviya, Yaman, Kongo, Ukraina va Iraq davlatlaridan eng ko'p madaniy yodgorliklar yo'q bo'lib ketish xavfi yuqori meros obyektlari sifatida ro'yxatga olingan.

Respublikamiz hududidagi Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz shahri ham YUNESKO tomonidan xavf ostidagi obyektlar ro'yxatiga kiritilgan. Shahrizabz shahrinining tarixiy markazida keng ko'lamda qurilish va obodonlashtirish ishlarini olib borishda konvensiya va uni amalga oshirish bo'yicha amaliy qo'llanma qoidalariga rioya qilmasdan, ularning loyihalarini YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan avvaldan kelishilmagan holda olib

tashkilotining 2017-yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra jahonda turizm sohasida eng yirik mamlakatlarning turizmdan tushgan yillik daromad miqdori bo'yicha AQSh, Ispaniya, Fransiya, Tailand, Buyuk Britaniya Italiya va Avstraliya mamlakatlari eng yuqori o'rinda turadilar [7].

borilgani uning tarixiy va umumbashariy qiymatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, YUNESKO huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasining 40-sessiyasi qarori bilan Shahrizabz tarixiy markazi 2016-yilda Umumjahon merosining xavf ostidagi obyektlar ro'yxatiga kiritilgan. Natijada Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 25-martda dagi 87-sonli qarori bilan "Shahrizabz shahrinining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko'kalamorlashtirish va saqlash departamenti tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va alohida departament tashkil qilindi [8]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-mart kuni 119-sonli "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilindi [9].



Xulosa. Umumjahon merosi butun insoniyat mulkini tashkil etuvchi buyuk madaniy va tabiiy yodgorliklardir. Xalqaro miqiyosda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tiklash va saqlash

muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari xususan, YUNESKO tashkilotining faoliyati muhim ahamiyatga egadir. Xalqaro miqiyosda bunday tuzilmalarining

mavjudligi moddiy madaniy meros obyektlarini tizimlashtirilgan holda, aniq bir dastur asosida muhofaza qilishga yordam beradi. Muhofazaga olingen obyektlar xalqaro e'tirof va huquqiy himoyaga ega bo'ladi shuningdek, ma'lum sharoitlarda bu obyektlarni tiklash yoki saqlashni osonlashtirish uchun Jahon merosi jamg'armasidan mablag' ham ajratiladi. Mablag' ajratishda asosan muhofazaga olingen obyektning qadimiyligi, alohida o'ziga xos tarixga egaligi va ushbu obyekt joylashgan hududda moddiy meros hisoblanishi inobatga olinadi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad asrlar davomida avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan yodgorliklarni, obidalarni kelajak avlodlarga qoldirish masalasidir. Dunyoning tarixiy madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish faqatgina ma'lum bir tashkilotlar yoki davlatlarning emas balki, butun insoniyatning muhim vazifasidir. Bunda xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, nodavlat notijotar tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish bugungi kunda yanada muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti. "Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya"/ XVII sessiya. -Parij, 1972-yil 16-noyabr.
2. Matsura K.. Jahon merosi. -P.: "YUNESKO publish", 2009. 832-bet.
3. Rey E., Jordan L., Klaudiya A.. Jahon xotirasini dasturi: asosiy jihatlar va so'nggi o'zgarishlar. -Shvetsariya, "Meros studio", 2020.
4. Hetter Katia. Exploring the world's first 12 heritage sites. CNN. Archived from the original on 26 May 2020.
5. Insopov A.A. O'zbekistonda fuqorolik jamiyatini barpo etishda davlat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi (1991-2016 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. - Toshkent, 2021. -157
6. UNESCO World Heritage Centre - World Heritage List <https://whc.unesco.org/en/list/>
7. The World's Top Countries for Tourism. <https://uz.m.wikipedia.org/>
8. "Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va saqlash departamenti tashkil etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 25-martda dagi 87-sonli qarori.
9. "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 03.03.2021-yildagi 119-sonli qarori. <https://lex.uz>
10. Jahon merosi ro'yxati statistikasi". YUNESKO Jahon merosi markazi. 2011-yil 14-mayda asl nuxsadan arxivlangan. Nashr qilingan 2023-yil 26-yanvar. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat ва san'at/uz>
11. <https://www.unesco.org/ru/countries/uz>



Xamdam MATYAKUBOV,
Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: hamdamtarix@gmail.com

Urganch davlat universiteti professori, t.f.n Q.Sobirov taqrizi asosida

XORAZM DAVLATCHILIGI TARIXSHUNOSLIGI MASALASIGA DOIR TA'LIMOTLAR VA QARASHLAR TAHЛИI

Annotatsiya

Korazm ilk davlatchiligi tarixiga oid muammoni hal qilishda, avval yozma manbalar asosida yoritilgan sharqshunoslarning asarlaridagi holatlar va keyinroq, sun'iy sug'orish va dexqonchilik madaniyatiga tegishli arxeologik materiallar talqinida vujudga kelgan qarashlar yetakchi o'rinn egallaydi. Shundan kelib chiqqan holda maqolada Xorazm ilk davlatchiligi tarixiga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlarning tahlili amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: Xorazm davlatchiligi tarixshunosligi, sinfiy nazariya, harbiy demokratiya, "Avesto", nazariyalar, qaqrashlar, ta'lomitlar.

TEACHINGS AND VIEWS ON THE PROBLEM OF THE HISTORIOGRAPHY OF THE KHOREZM STATEHOOD

Annotation

When solving the problem related to the history of the first statehood of Khorezm, firstly, cases in the works of orientalists, illuminated on the basis of written sources, and later views that arose during the interpretation of archaeological materials related to the leading place is occupied by artificial irrigation and agriculture. Based on this, the article analyzes scientific views and approaches to the history of the first statehood of Khorezm.

Key words: Historiography of the Khorezm statehood, class theory, military democracy, "Avesta", theories, sayings, teachings.

УЧЕНИЯ И ВЗГЛЯДЫ НА ПРОБЛЕМУ ИСТОРИОГРАФИИ ХОРЕЗМСКОГО ГОСУДАРСТВА

Annotation

При решении проблемы, связанной с историей первой государственности Хорезма, учитывались, во-первых, случаи в трудах востоковедов, освещенные на основе письменных источников, а позднее и взгляды, возникшие при интерпретации археологических материалов, связанных с ведущее место занимают искусственное орошение и земледелие. На основе этого в статье анализируются научные взгляды и подходы к истории первой государственности Хорезма.

Ключевые слова: Историография Хорезмской государственности, классовая теория, военная демократия, «Авеста», теории, сказания, учения.

Kirish. Xorazm vohasida ilk davlatning paydo bo'lishi, voha Ahamoniylar davlati tarkibida va qadimgi Xorazm podshohligining tashkil topishi kabi yo'naliishlarda o'rganilgan. Xorazmda ilk davlatchilik tizimining vujudga kelishi va rivojlantishini muammosi Markaziy Osyo tarixshunosligida eng bahsli masalalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, mintaqaning tarixiy-madaniy viloyatlarida davlatchilik turli davrlarda va turlicha omillar ta'sirida paydo bo'lgan.

Tahsil va natijalar. XX asr 30-yillardan boshlab, sovet tarixshunosligida davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi ko'plab nazariyalardan (15 tasidan) faqat markscha "sinfiy" nazariya va uning doirasida ishlab chiqilgan formatsiyalari yondashuv qo'llanilgan edi. Ushbu nazariyaning mazmun-mohiyatiga ko'ra, urug'chilik tuzumi yemirilishi bilan bog'liq holda, davlatning paydo bo'lishi jarayonida mulkiy va ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy sinflarning vujudga kelishi va hukmron sinflarning manfaatlarini ximoya qilish zarurati, hukmron (ezuvchilar) va qaram (eziluvchilar) sinflarning o'tasida kurashning keskinlashishi kabi omillar, tarixda zo'ravonlik, ezuvchi apparat-davlatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan [1].

Bu ta'lomitda ibtidoi jamiyatdan davlatchilik tizimiga tadrijiy o'tish g'oyasi muhim o'rinn olib, sinflarning vujudga kelishi bilan parallel ravishda, hukmron qatlanning manfaatlarini himoyalash maqsadida, maxsus siyosiy uyushmaning tashkil topishi qayd etilgan. Bunday uyushma yangidan tarixiy sahnada paydo bo'Imagan, u qabilaviy boshqaruv tizimining (oliy yo'lboshchi, oqsoqollar kengashi, qabila - "xalq" yig'ilishi) an'anaviy organlariga asoslangan. Shu sababli, bundan beri urug' oqsoqollar va qabila yo'lboshchilarining orasida ijtimoiy ko'tarilishga va ijtimoiy mansablarini egallab olishiga itilish kuchayib borgan, chunki jamiyatdagi yuqori mavqeい shahsий moddiy farovonlikka ko'maklashib, uning mustahkam ta'miniga aylanib borgan [10].

Shuningdek, urug'chilik tuzumidan davlatchilik tizimiga o'tish bosqichiga tegishli L.Morganning "harbiy demokratiya" haqidagi qarashlari yangi asoslarda rivojlantirilgan. Tarixiy, arxeologik va folklor manbalariga ko'ra, harbiy demokratiya tizimi qadimgi yunon qabilalari, etrusklar, skiflar, sarmatlar, vikinglar va boshqalarga xos bo'lgan [11].

"Harbiy demokratiya" ibtidoi jamiyat tarixida ijtimoiy boshqaruv tizimidan harbiy tamoyillarga asoslangan hokimiyat tashkilotiga o'tish bosqichini belgilab beruvchi tushuncha sifatida ishlatalidi. Bu davrda oqsoqollar kengashi va xalq yig'ini o'z ahamatinti saqlab turgan bo'lsa-da, ammo umumiy yig'ilishdagi urug'-qabilalarning muhim masalalarini yechish jarayonlarida faqat qurollangan jangchilar ishtirok etib oliy hokimiyat harbiy yo'lboshchiga o'tadi [22]. Bunday harbiy uyushma faoliyatida tashqi bosqinlaridan himoyalanish va aksincha, qo'shni hududlarga bostirib kirish, mulk, chorva va boshqa boyliklarni qo'lga kiritish, ya'ni talon-tarot va urush muhim vazifaga aylangan.

Harbiy demokratiya tamoyillari dasht chorvadorlar qabilalari jamoalarida ilk sinfiy munosabatlar yuzaga kelish davrida odat bo'lganligi hususida ham fikr yuritilgan [20].

S.P.Tolstov o'zining monografiyasida qadimgi Xorazm tarixining dastlab yoritilishini, XIX asming oxirlari – XX asr boshlarida yevropalik sharqshunoslari (Ye.Zaxau, P.Lerx, V.Tomashek, V.Geyer, K.A.Inostransev, A.Xermann) boshlab berganlarini qayd etib, Yevropada nashr etilgan adapbiyotlar orasida nemis olimi I.Markvarthning ishini alohida tilga oldi [14].

Shu olimning asarida qadimgi Xorazm tarixiga faqat ikki sahifa ajratilib, Axamoniylar sulolasi hukmdorlarning Xorazm vohasini zabt etishi davriga qadar, chegaralari Eron hududigacha cho'zilgan kadiimgi Xorazm podshohligi to'g'risida masala ilgari surilgan [14]. S.P.Tolstov bu g'oyanining ayrim bahsli jihatlarini ko'rsatib, shu bilan birga, Axamoniylar davrigacha Markaziy Osyo hududida mil. avv. I ming yillikning ikkinchi choragida markazi Janubiy Orolbo'yida bo'lgan Xorazm davlati va markazi yuqori Amudaryo havzasida joylashgan Baqtarya davlati shakllangan deb yozgan.

Bu fikr-xulosalarda Xorazmda davlatning shakllanishi "Sharq yo'li" dagi "osiyocha ishlab chiqarish" usuliga, sun'iy sug'orish-irrigatsiya dehqonchiligidagi asoslangani, ya'ni "irrigatsiya nazariyasi" yondashuvi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qadimgi Xorazm tarixini o'rganishda, dastlab, ilk yozmalar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular asosiy manba sifatida qullanilgan. XIX asming 70-yillardan boshlab, "Avesto" va qadimgi yunon

tarixchilari asarlarida yoritilgan xabarlar yevropalik sharqshunoslari asarlarida tahlil qilingan[38].

Yozma manbalar asosida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda Xorazm davlati tarixi bilan bog'liq quyidagi masalalar ilgari surildi:

“Xorasmiylar” – xorazmliklarning dastlabki yurtining tarixiy geografiyası;

Qadimgi Xorazm podshohligi yoki “Katta Xorazm” siyosiy birlashuvining muammosi.

Mazkur tadqiqot muallifining ishlarida ushbu nioxyatda muhim muammolarining ayrim jihatlari ko'rib chiqilgan edi. Biroq, ayniqa, XXI asning birinchi choragida yuqorida qayd etilgan mavzularga dahldor qarashlarning boyitilishi, tarixshunoslik ma'lumotlarning kengayib borishi, ularni qiyosiy tahlil qilish va bu borada bilimlar dinamikasini olib berish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu, o'z navbatida, yetarli darajada o'rganilmagan holatlarni yangi asoslarda ko'rib chiqish taqzoza etadi. Tarixiy rivoyatlar va o'rta asrlar mualliflarning asarlari (al-Makdisiy, al-Beruniy, Yoqut va boshqalar) qadimiy xorazmliklar Quyi Amudaryo yerlariga janubdan ko'chib kelgan aholi sifatida yoritilgan [1]. Abu Rayhon Beruniy rivoyatlarda

Qadimgi yunon mualiflari Geogreji (mil. avv.VI asr oxirlarida – V asr boshlarida) va Gerodotning (mil. avv.V asr) asarlarida xorasimiyalar va Xorazm haqida ham axborot berilgan. Shu ma'lumotlarni o'rganish natijasida “xorasimiyalar” deb atalgan xalqning dastlabki hududiy joylashishi hamda qadimiy Xorazm podshohligining tarixiy geografiyasi va hududiy chegaralari muammosiga oid qarashlar vujudga kelib, mavzu tarixshunosligi shakllana boshlandi.

Gekatey xorasmiylarni parfiylar (parfyalar) dan sharqdagi pasttekisliklar va tog'larda joylashtiradi hamda shu tog'larda tikanli kinara (namatak), tol va yulg'un kabi "yovvoyi daraxtlar" o'sgan deb yozadi [35]. Gerodotning aytilishicha, bir paytlarda xorasmiylar tog'lar bilan o'talib olgan vodiyya yashaganlar, u xorasmiylar, girkonlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlariда joylashgan, tog'lardan esa Akes daryosining irmoqlari boshlangan. Bunga qo'shimcha qilib yunon tarixchisi xorasmiylarga tegishli shunday yozadi: "Qishda xudo ularga, boshqa kishilarga singari, yomg'irlarni tortiq qiladi, yozda esa ular tariq va kunjut ekib suvgaga muhtoj bo'ladilar" [17].

Ingliz sharqshunosи V.Tarn, Gekateyning xorasmiylarga tegishli xabarlariga, Gerodotning Akes daryosi to'g'risida hikoyasiga va shoh Doroning satrapiyaliklari ro'yhatidagi ma'lumotlarga asoslanib, xorasmiylar dastlab Parfiyadan sharqda, Turkman – Xuroson tog'larining chetida, Parfiya va Baqtriya o'rtaqidagi hududlarida hukumron bo'lib yashaganlar, forslar ularning yerlarini zabt etib va xorasmiylar mamlakatining eng yaxshi yerlarini tortib olganlaridan so'ng, xorasmiylar Quyi Amudaryo havzasidagi Xorazm vohasisiga ko'chib ketishgan deb yozgan [42]. Shunday qilib, qadimgi xorazmliklar Janubiy Orolbo'yida migratsiya – ko'chib kelish obiqabatida paydo bo'lishiga doir g'oya vujudga keldi.

XX asrning 70-yillarda I. V. Pyankov xorasmiylar va "Katta Xorazm" muammosini atroflicha o'rganib, tarixshunoslikda mavzu yuzasidan I. Markart, A. Xerman, V. Tarn, S. P. Tolstov, M. M. Dyakonov, V. B. Kenning, I. Gershevich va boshqa olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qildi.

Tadqiqotning xulosalariga ko'ra, axamoniylar davridan avval Xorazm podshohligi Kopetdog'ning shimoliy yon bag'irlari va Kuchan-Mashhad vohasini, Nishapur viloyati va Tajan-Xerirud daryosi vodiysisini o'z ichiga olib, g'arbda va sharqda Midiya va Baqtirya davlatlari bilan yondosh bo'lganligi, ehtimoldan holi emas, forslar xorasimlarini bo'sundirganidan so'ng, ularni dehqonchilik sohasini rivojlantrish maqsadida Quyi Amudaryo yerlariga ko'chirishgan [20].

Qadimgi Xorazm madaniyatini o'rganilishiga katta hissa qo'shgan M. G. Vorobevaning "Katta Xorazm" muammosiga mansub maqolasida, Gekatey faqat O'rta Amudaryodagi Xorazm yerlarini to'g'risida geografik ma'lumotlarga ega bo'lgan. Parfiyadan shimaliy-sharqda joylashmagan, Xorasmiyalar Quyi Amudaryo hududlariga janubdan ko'chirilmagan va ular Janubiy Orolbo'yida ajodolari o'tmishtan yashab kelgan tub aholi bo'lib, qadimgi Xorazm davlati aynan shu yerda paydo bo'lgan deb ta'kidlagan [22].

Shu davr tarixiy geografiyasi masalalariga bag'ishlangan ishlarda ham xorasmiylar Tajan – Xerirud yoki Murg'ob daryolarining vohalarida yashamaganlar va ularni forslar Quyi Amudaryo

hududlariga ko‘chirilganligi holatini o‘rganishga ilk yozma manbalar xizmat qilmaydi, degan xulosaga keltingan [5].

oid soliq mirobona deb atalgan va u dehqonlar tomonidan miroblarning xizmat xaqqi evazi uchun xosil yig'ilganidan so'ng yig'ib berilgan. Qo'qon xonligi arxiv hujjatlarida mirobler uchun xazinadan maosh ajratilganligi haqidagi ma'lumotlar uchramaydi. Shundan xulosa qilish mumkinki, mirobona mirob lavozimidagi amaldorlarning ish xaqqi bo'lishi ham mumkin. 1857-58 yilga oid hujjat Malla mirob va Bobonazar miroblarga Muhammad Rasul Mulla Abdug'affor o'g'lidan yozilgan bo'lib, unda Yormasjid kanali mirobi vazifasiga Muhammad Sodiq tayinlanganligi aytildi va shu kanalning yarmiga ko'rsatilgan shaxs miroblik qilishi eslatiladi[9]. Mirobning vazifasi suv va suv inshaotlarini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Qo'qon xonligida mirob vazifasiga asosan harbiy soha amaldorlarini tayinlangan. Bundan boshlilikimiz mumkinki, miroblik nufuzli va ma'suliyat, kuch talab etadigan kasb bo'lgan. Bunda nafaqat mardlik, jasorat hislatlariga ega bo'lish, balki dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan bo'lish zarurdir. O'rganilgan hujjatlarda mirob vazifasiga harbiy bo'limlardagi xizmatchilardan tayinlanganligi qayd etilgan daftarlari mayjud. Masalan, Qorasoql, Ushtirxon, Yozyovon, Arsif, Qo'chqorchi, Karvan kanallariga harbiy bo'limlardan mirobler tayinlangan bo'lib, ularning qaysi harbiy bo'limdanligi va ism-shariflari keltirilgan[9]. Qo'qon xoni saroy devonxonasida suv xo'jaligi ma'murlari tomonidan rasmiylashtirilgan huquqiy hujjatlar saqlanib qolgan. Bunday hujjatlardan Simsho'ra, Jarimgon, Suppan, Mo'yan, Navkand, Log'on, Avval xududidagi kanallarning suvini nazorati, ularga mirob vazifasiga tayinlangan harbiy xizmatchilar qayd etilgan. Miroblik va mirobona xonlikda alohida e'tiborga moliq bo'lgan jihatlardan bo'lgan. 1859-60 yilga oid bir hujjat Mallaxon tomonidan Yormasjid oqsoqoliga yozilgan muboraknomasi bo'lib, unda Sodiq qo'riqchi va Mirzaboy botirlar mirob lavozimiga tayinlanganligi bilan tabriklanganlar[9]. Qo'qon xonligida qishloq xo'jaligi sohasiga oid bo'lgan soliqlarni aholidan undirishda faol qatnashgan mirobler ham soliq davlatning ichki va tashqi vazifalarini ado etishga surf etilishi nuqtai nazaridan fuqarolarga soliq to'lash majburiy ekanligini singdirishga uringanlar. Xonlik xazinasiga kelib tushayotgan daromatlarining yig'indisi mamlakatning moliyaviy resursini tashkil etadi. Daromadlarni ko'payishi xazinani boyishiga olib keladi. Daromadlar manbai to'laligicha moliya tushunchasini anglatmaydi. Shuning uchun xazinaga kelgan mablag'larni maqsadli surf etilishini o'rganish lozim. Qo'qon xonligining moliya resurslari,

davlat xazinasini tashkil etish bilan birga uni taqsimlash masalalarini ijtimoiy hayotga ta'sirini o'rganadi. Miroblarga berilgan mirobona ularning maqsida sifatida qabul qilingan.

Qo'qon xonligidagi moliyaviy siyosat mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlab bergan. Moliya siyosatining asosi maqsadi xazinaga kelayotgan daromadni oshirishdan iborat bo'lgan. Bu maqsadda aholini turmush tarzini yaxshilash, farovonlashtirish, turli imtiyozlar yaratish uchun kanal, ariq qazish, soliq yoki milliy bayramlardagi himoya amalga oshirilgan. Masalan, A.Troiskaya "xon va uning oila a'zolariga qarashli yerlarda yashab, mehnat qilgan kishilarga suvdan foydalaniшda ayrim imtiyozlar berilgan bo'lishi mumkin", -deb ta'kidlaydi[10]. Darhaqiqat, Xudoyorxonning o'g'li Muhammadaminbek yerlari hududida yashovchi sakkiz nafar yelim tayyorlovchi usta-hunarmandlarga Safidjo'y kanalidan har o'n bir kundan keyin bir kun ichish va dehqonchilikda foydalaniш intiyozi berilgan[9]. Bu hujjat 1874-1875 yillarga oid bo'lib, muboraknomma ko'rinishida hudud oqsqollarini va aminlariga Xudoyorxonning nomidan tayyorlangan.

Qo'qon xonligida moliyaviy siyosat dasturlarini bajarish uchun hazinga moliyaviy resurslarni jalb qilish hamda sarf etishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan. Bu ishlarning barchasi xon yoki vakolatlari kishilar tomonidan muhr bilan tasdiqlangan. Qo'qon xonligida kanal qazishga sarmoya kiritilib kelajakda undan daromad olingan.O'zMAda saqlanayotgan muboraknomma ko'rinishidagi hujjatlarda Jo'ybor Qorako'rpa[9], Safidjo'y [9], Yormasjid[9], Yorjar [9], daftor ko'rinishidagi hujjatlarda Simsho'ra, Jo'yyarimjon, Arsis, Suppin, Muyan, Navkent, Lagan, Avval[9], Ushturxon, Qorasaoq, Yozyavon, Qo'yaqorchi, Karvon [9.] kabi kanallar suvini boshqaruvchi, ulardan kelgan daromadni moliyaviy nazorat qiluvchi miroblar va ularni shu lavozimga tayinlanganligining taqdirlanishi keltirib o'tilgan. Qo'qon xonligida dehqonchilikni rivoji uchun, qolaversa suvdan foydalanganlikda moliyaviy daromad olishni nazorat qilish uchun suv xo'jaligi mavjud bo'lib, undagi amaldorlar mirob deb yuritilgan. № 649-hujjatda jami 60 ta kanalga harbiylardan tayinlangan miroblarning ro'yxati keltiriladi.

Qo'qon xoni Olimxon hukmronligi yillarda Farg'onaviyodisining janubiy hududlaridagi suv ta'minotini yaxshilash uchun So'x daryosidan oltita ariq qazilgan va hozirgi Oltiariqqo asos solingan[11]. Bu davrda Namangan vohasida suv ta'minotini yaxshilash, yangi yerlami o'zlashtirish uchun Namangan viloyati hokimi Sayidqulbek Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq kanalini qurish uchun ruxsat olinganligini P.P.Ivanovning tadqiqotidan bilish mumkin[12].

Xudoqulovning tadqiqotida Yangiariq kanalining qazilgan yili haqida ilmiy tarixiy manbalarda turlicha ma'lumotlar borligi tahlil etilgan. Chunonchi, arxiv hujjatlarida kanal 1800-1803 yillari qazilgan deb yozilgan[9]. A.F. Middendorf, S.Soatovlar uni 1803 yilda, V.P. Nalivkin esa 1819 yilda qazilgan deb ko'rsatadi. XIX asrmatbuoti sahfalarida ham Yangiariq kanali 1803-1811 yillarda bunyod etilgan,

ADABIYOTLAR

1. <https://daryo.uz/2023/11/17/suv-tekin-emas-degan-goyani-aholiga-chuqr-singdirish-lozim-shavkat-mirziyoyev>.
2. Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – 239 b.;
3. Ishkuvvatov V. XX asning II yarmi tarixshunosligida Qo'qon Rossiya diplomatiк munosabatlari. Tarix fan. nomz... diss... – Toshkent, 2003. – 152 b;
4. Ilxomov Z. Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o'rni. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004. – 160 b;
5. Sultonov O'. Muhammad Solihxojaning "Tariji jadidiy Toshkand" asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 157 b.; O'sha mualif. Muhammad Solihxoja va uning "Tarixi jadidiy Toshkand" asari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009. – 269 b.;
6. Худойкулов Т. XIXасрда Кўқон хонлигининг ижтимоий сиёсий, иқтисодий ва маданий хаёти. Тарих фан.номз... дисс. – Тошкент, 2009. – 151 б.;
7. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Ташкент, 2010. 743 с.;
8. Хатамова З.Н. Кўқон хонлигда солик тизими тарixдан, архив хужжатлари асосида. // Водийнома. – Андижон, 2020. № 3. 78-85 бетлар. (07.00.00. № 27); Хатамова З. Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the Kokand khanate. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. vol. 5. Issue 3. – P. 274-277; Хатамова З.Н.Кўқон хонлигига солик тизими. Тарих ф.д.б.PhD дисс... – Фарғона, 2022. – Б.157.; Хатамова З. Кўқон хонлиги молия тизимида монетар сиёсат тарixидан // Ўзбекистон тарixининг долларлар муваммолари. – Фарғона, 2022. – Б. 327-336.
9. OzMA, I-1043 fond, 1-ro'yhat., 650-иш, 1-varaq; 549-иш, 1-varaq; 548-иш, 1-varaq, 652-иш.1-varaq; №645.; № 644.; №645.; №644.; №646.; №649.; 19-fond, 1-рўйхат, 290-иш, 13-varaq.; 19-fond, 1-рўйхат, 290-иш, 22-в.; 1043-fond, 1-рўйхат, 653-иш, 10-в.
10. Троицкая А.Л. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. Москва, 1969.– С.17.
11. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: 2000. – Б. 298.
12. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии.(XVI – середина XIX в.в.). – Москва: 1958. – С. 19-20.

deb yozilgan. Lekin topografi N.Jilin va arxiv ma'lumotlariga tayangan holda kanalni 1800-1803 yillarda Olimxon davrida bunyod etilgan deb ta'kidlash mumkin.

Umarxon davrida, ya'ni 1811 yilda Yangiariqdan Zarkent va G'irvon qishloqlariga qarab ariq chiqarilgan. Bu ariq Farg'onava vodiysining sug'orma dehqonchiligi tarixiga Mutagan arig'i nomi bilan kirdi.

1819 yilda Qo'qon xoni Umarxon farmoni bilan Yangiariq kanali yana uzaytirilib, uning uzunligi 120 chaqirimga yetkazildi. Yangiariq kanali qazilgandan keyin Namangan vohasida 5 ta soy, 195 ta ariq mavjud bo'lib, ular orqali 131 ta qishloq va 45 ta chorvadorlarning qishloq yerlari sug'orilgan, suv ta'minoti va nazorati bilan 4 ta mirobboshi va 66 ta mirob shug'ullangan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ma'lumot va tahlillardan shuni xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Qo'qon xonligi moliya tizimi o'ziga xos bir murakkab jarayon bo'lgan. Suv va u bilan bog'liq masalalarga davlat siyosat darajasida qaraganligini xatto urush va siyosiy inqiroz vaqtida ham ariq va kanallar qao'izil, tozalanganidan bilish mumkin. Bahor oylarida ariq va kanallari va boshqa suv inshootlarini tozalash maqsadida xasharlar yushtirilgan. Bu xasharlarni tashkil etish bevosita xonning buyurug'iga ko'ra amalga oshirilgan. Xar bir beklididan ma'lum fuqarolar kelib xasharda ishlagan va ularni xasharga chiqish imkon bo'lmasa, o'miga ishlochchi mardikor yollab bergan. Ularni kunklik ovqatlari esa xazinadan ajratilgan.

Kanal, ko'priklar qurish va ta'mirlashda xon moliyalashtirishi orqali amalga oshirilgan. Masalan, xonlikda qo'riq yerlarni o'zlashtirib qo'shimcha moliyaviy daromad olish maqsadida Umarxon tomonidan Yangi ariq, Madalixon tomonidan Xonariq, Xudoyorxon tomonidan esa Ulug'nahr kanallari qazilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qo'qon xonligi davlatchilik tarixida suv xo'jaligi masalasiga moliyaviy mablag' ajratilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv hujjatlari va manbalarda berilgan.

Jahonda suvdan foydalanan samaradorligi oshirishda moliyaviy resurslarni jalb etish va oqilonla ishlatilishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, suv resurslaridan foydalishni samarali tashkil etish, suvdan foydalishni xarakatlarini hamda tariflarini maqbul tarzda shakllantirish, mazkur jarayonlar samaradorligini oshirishda moliya mexanizmning umumiy ta'sirini aniqlash va ta'sirchanligini kuchaytirish, alohida moliyaviy dastaklarning suv resurslaridan foydalish samaradorligini oshirishga ta'sirini baholash muammolarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston iqtisodiy salohiyatini belgilashda agrar sohaning muhim o'rin tutishi, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik vaziyatning keskinlashuvni, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'tasida suv resurslarini taqsimlash va ulardan foydalish borasidagi muammolarning o'z ahamiyatini saqlab qolishi mamlakatda suv resurslaridan foydalish samaradorligini masalalariga alohida dolzarblik baxsh etadi.



Sharofiddin XOSHIMJONOV,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: sharofiddinhoshimjonov@gmail.com

KUAF dotsenti, PhD B.Tojiboyev taqrizi asosida

НАЦИОНАЛИЗАЦИЯ МЕЛКИХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

Annotation

В данной статье анализируется процесс национализации малых промышленных предприятий в Туркестанской АССР. Политика национализации советской власти началась с передачи крупных предприятий государству, а затем распространилась на малые предприятия и ремесленные мастерские. В результате этого развитие мелкого производства было ограничено, а из-за отсутствия эффективного управления многие предприятия оказались неэффективными.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, национализация, малые предприятия, ремесленное производство, советская политика, государственная монополия.

NATIONALIZATION OF SMALL INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE TURKESTAN ASSR

Annotation

In this article analyzes the process of nationalizing small industrial enterprises in the Turkestan ASSR. The Soviet government's policy of nationalization began with transferring large enterprises to state control and later extended to small enterprises and craft workshops. As a result, the development of small-scale production was restricted, and due to insufficient management, many enterprises became inefficient.

Keywords: Turkestan ASSR, nationalization, small enterprises, craftsmanship, Soviet policy, state monopoly.

TURKISTON ASSRDA KICHIK SANOAT KORXONALARINING DAVLAT TASARRUFIGA OLINISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston ASSRda kichik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga o'tkazilishi jarayoni tahlil qilingan. Sovet hokimiyatining natsionalizatsiya siyosati asosan yirik korxonalarini davlat tasarrufiga o'tkazishdan boshlanib, keyinchalik kichik korxonalar va hunarmandchilik ustaxonalari ham davlat hisobiga musodara qilingan. Bunday jarayonlar natijasida kichik ishlab chiqarishning rivojlanishi cheklangan, ammo tashkilotchilarning yetishmasligi tufayli ko'plab korxonalar faoliyatini samarasiz bo'lgan.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, natsionalizatsiya, kichik korxonalar, hunarmandchilik, sovet siyosati, davlat monopoliyasi.

Kirish. Sovet hokimiyatining Turkiston ASSRdag'i iqtisodiy siyosati mamlakatni sotsialistik tuzumga moslashtirish maqsadida keng ko'lamli ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan. Bu siyosatning muhim tarkibiy qismiga davlat mulki ustuvorligini ta'minlash uchun sanoat va savdo sohalari natsionalizatsiyasini amalga oshirish kiradi. Dastlab yirik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga olinishi jarayoni kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik kichik korxonalar va hunarmandchilik ustaxonalari ham milliyashtirish jarayoniga jalb etildi. Ushbu maqola Turkiston ASSRda kichik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga o'tish jarayoni, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, kichik mulkdorlar va hunarmandlarning iqtisodiy faoliyatiga bu jarayon qanday ta'sir ko'rsatganligi ham tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolani yozishda foydalilanigan ilmiy va arxiv manbalari mavzuni har tomonlama yoritishda muhim ahamiyat kasb etidi. E. Olvortning ilmiy ishlari Markaziy Osiyoda sovet hokimiyatining dastlabki yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatni o'rganishda asosiy nazariy manbalardan hisoblanadi. U o'z tadqiqotlarida kichik sanoat korxonalarining milliyashtirilishini kontekstida tahlil qilgan. Olvortning yondashuvni ushbu siyosatning mahalliy aholi hayotiga ta'sirini hamda uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritishda yordam beradi. Alexandre Parkning mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga oid ishlari Turkiston ASSRda kichik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga o'tkazilishining mahalliy va global kontekstida o'rganishda muhim ahamiyatiga ega. Uning tahlillari jarayonning iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash va davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadlarini yoritishda dolzabdir. Park, ayniqsa, natsionalizatsiya siyosatining mahalliy ishbilarmonlik muhitiga salbiy ta'siri va bu jarayonning ijtimoiy oqibatlarini aniqlashda aniq dalillar keltirgan. Bundan tashqari, arxiv materiallari maqolaning faktologik bazasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, sovet davridagi iqtisodiy siyosatni o'rgangan mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlari ham mavzuni o'rganishda muhim manbaviy asos bo'ldi.

Metodlar. Tarixiy-davriy tahlil metodi asosida natsionalizatsiya jarayonining bosqichlari vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganligi va bu jarayonning kichik korxonalar faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatganligi tahlil qilindi. Arxiv materiallarni tahlil qilish metodi yordamida esa, Turkiston ASSRning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatiga oid huqijatlar, hukumat qarorlari va natsionalizatsiya bo'yicha rasmiy ko'rsatmalar o'rganildi. Shuningdek, sinergetik metod yordamida Turkiston ASSRning iqtisodiy tizimini kichik sanoat korxonalarini, yirik ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va davlat boshqaruvi komponentlarining o'zaro bog'liq majmuasi sifatida ko'rib chiqilib, kichik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga o'tishi ushbu tizim ichidagi muvozanatni qanday o'zgartirgani o'rganildi. Sinergetik metoddan foydalanilgan kichik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga o'tish jarayonini nafaqa statik tahlil qilishga, balki ushbu jarayonning murakkab dinamik xususiyatlarni va ularning iqtisodiy tizimga qanday ta'sir ko'rsatganini tushunishga imkon beradi. Ushbu yondashuv maqolani ilmiy nuqtai nazardan chuqurroq va innovatsionroq qiladi.

Tahlil va natijalar. 1918-yil sentyabriga kelib yirik sanoat tarmoqlari va deyarli barcha yirik korxonalar natsionalizatsiya qilindi. Bu haqda Turkiston Respublikasi Xalq xo'jaligi sovetlari syezdining iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bag'ishlangan yig'ilishida qayd etildi[1]. Ushbu yig'ilishi kun tartibining eng muhim masalalaridan biri kustar ishlab chiqarish, ya'ni hunarmandchilik ustaxonalarini davlat tasarrufiga olish, bunda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan eng muhim masalalar muhokama qilindi va kustar ishlab chiqarish korxonalarini natsionalizatsiya qilish bo'yicha qator qarorlar qabul qilindi.

Muhokama davomida, yirik sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qilinib, kichik ishlab chiqarish xususiy mulk sifatida kichik mulkdorlar qo'lida qolayotgani qayd etildi. Turkistonning deyarli barcha yirik ishlab chiqarish korxonalarini dehqonchilik va chorvachilikka to'liq bog'liq ekanligi, yoqilg'i, xom ashyo va zarur texnik vositalariga, katta moliyalashtirishga muhtojligidan kelib chiqib, sovet hukumati yaratgan yangi muhitda yirik korxonalar doimiy ravishda qisqarish va yo'q bo'lishga mahkum ekanligi qayd etildi. Ko'plab sohalari davlat monopoliyasiga o'tkazilishi buni yanada tezlashtirdi. Biroq, keyinroq kichik korxonalar va hunarmandchilik

ustaxonalarini bir qancha omillar, xususan, o'lkaniming markazdan uzilib, xo'jalik mollari yetkazilishi to'xtab qolishi; Markazda ham, Turkistonda ham yirik ishlab chiqarish korxonalarini yo'q qilinishi va buning ortidan tovar ishlab chiqarishning kamayishi; eski savdo apparatini yo'q qilish va yangilarini tashkil etmaslik natijasida rivojlandi. Bundan tashqari, hunarmandchilikni rivojlantirish uchun katta tashkil tadbirlar shart emasligi sabab hunarmandchilik nafaqat qishloqda, balki shaharda ham rivojlangan[1].

Aytish mumkinki, xususiy tadbirkor mustaqil tadbirkorlik uchun yetarli mablag' va materiallarga ega bo'lsa, u holda, davlat organalarining hunarmandchilikni o'z qo'liga olishi qiyin kechari. Davlat hunarmandchilikni amalda monopollashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, kooperativlar tashkil etish orqali hunarmandlarni birlashtirish imkoniyati mavjud, biroq, sovet hokimiyatiga ishonchszizlikning yuqori ekani, hukumatda bu sohani rivojlantirish uchun ortiqcha mablag'ning yo'qligi va eng asosiyisi, o'z mulklarining qachondir tortib olinishi aniqligi hunarmandlarni bundan to'xtatardi, hatto ko'plari o'z korxonalarini yopib qo'yishi yoki ishlatmasligiga olib keldi. Sovet hokimiyati bu sohada ham o'zining keskin siyosatidan voz kechmadi. Kichik korxonalar va hunarmandchilik ustaxonalarining natsionalizatsiyasi boshlandi.

Dastlabki ikki bosqichda asosiy e'tibor yirik sanoatchilar, tarmoq sohalari va yirik sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qilingan bo'lsa, so'nggi bosqichda endi soni jihatdan ko'p, ammo anchagina kichik bo'lgan korxonalar va xizmat ko'rsatish shaxobchalarini sovet hokimiyati tasarrufiga olish amalga oshirildi. Bunday korxonalar asosan, kustar ko'rinishda bo'lib, hunarmandlarning terini qayta ishlovchi kichik korxonalar, tegrimon, nonvoynona, kosibchilik ustaxonalar, hammom, yog'och tilish ustaxonalarini va boshqa xizmat ko'rsatish ustaxonalaridan iborat edi. Ahamiyatlisi, bunday turdag'i kichik korxona va ustaxonalarning egalari asosan mahalliy millat vakillari bo'lgan. Ularning soni taxminan mingga yaqin bo'lib, asosan, 5-7 ta, ayrim xollarda 10-15 tagacha ishchi ishlagan, kichik xizmat ko'rsatish shaxobchalarida esa, 2-3 kishi, jumladan uning egasi ham ishlagan. Sovet hokimiyati o'zining asosiy dushmanini deb hisoblagan yirik mulkdorlarni kuchszlantirib, ularga tegishli mol-mulkni hukumat tasarrufiga olgach, sovet hokimiyati burjuva kayfiyatida deb hisoblaydigan o'rta va kichik mulkdorlarga o'z e'tiborini qaratdi.

Turkistondagi kichik korxonalar tizimida terini qayta ishlash korxonalarini miqdor jihatidan eng ko'plaridan biri edi. O'ika qishloq xo'jaligida chovrachilik alohida o'ringa ega bo'lib, teri mahsulotlariga talab yuqori ekanligidagi chorva hayvonlarini terisini qayta ishslash muhim tarmoqqa aylangan edi. Ayniqsa, urush holatida bo'lgan sovet hokimiyati uchun armiyani maxsus kiyim bilan ta'minlash bevosita shu tarmoq mahsulotlariga bog'liq edi. Shu bois terini qayta ishslash korxonalarini davlat tasarrufiga olish o'rta va kichik mulkdorlarni kuchszlantiribgina qolmay, ko'lami jihatidan anchagina keng bo'lgan sohada davlat monopoliyasi o'rnatilishiga olib kelardi. Avval boshda bunday kichik korxonalar oblast xalq xo'jaligi kengashi yoki uyezd ijroiya qo'mitalari tomonidan yakka tarzda natsionalizatsiya qilina boshlandi. Keyinroq, xalq xo'jaligi kengashlari xodimlari tomonidan bunday korxonalarini ro'yxatga olish tadbirlari amalga oshirilib, mas'ul organa natsionalizatsiya qilinadigan korxonalar bo'yicha xulosalar bergan.

Dastlab, hukumat terini qayta ishlash sanoatini qisman natsionalizatsiya qilishni e'lon qildi[2]. XKSning 1918-yil 9-avgustdag'i qaroriga asosan Vekesser va Pauli savdo uyi, Mirozod Mirazimov, Abdugodir Karim Olimboev, Rixsiboy Yo'ldoshboev, Abdugayum Abdugoriyev, Mirayub Mira'zamov, Azimboy Otaboyev, To'lagan Olimboev, Kotlubovski, Badalboy Otabayev, Yemelyanov va Sorokinlarning "G'arbiy-Osiyo savdo-sanoat aksiyadorlik jamiyatiga"ga qarashli terini qayta ishlash zavodlari va ulardag'i barcha tayyor, yarimtayyor, xom ashyo, kimyoviy mahsulotlar, barcha aylanma mablag'lar, jonli va jonsiz mehnat qurollarining barchasi davlat mulkiga aylantirildi. Shu yilning 12-sentyabrida Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan yana 14 ta teri zavodi davlat tasarrufiga o'tkazildi[3].

Shu yilning 3-dekabrida Toshkent ishchi, soldat va dehqon deputatlari soveti ijroiya qo'mitalari Toshkent shahridagi barcha terini qayta ishlash zavodlari natsionalizatsiya qilinganini e'lon qildi. Barcha teri zavodlari Toshkent ishchi, soldat va dehqon deputatlari soveti tasarrufiga o'tkazilib, bevosita yuoshqaruv Toshkent xalq xo'jaligi

kengashiga berildi va har bir korxonaga qarashli mulklarning batapsil ro'yxati tuzilishini belgilab berildi. [3] Toshkentdag'i barcha terini qayta ishlash zavodlari sovet hokimiyati qo'liga o'tdi. 1918-yilning dekabr oyi oxirida Toshkent xalq xo'jaligi kengashi hisob-statistika bo'limi ma'lumotiga ko'ra, [4] avgust-dekabr oylari oralig'iда 25 ta terini qayta ishlash korxonalarini viloyat xalq xo'jaligi kengashi ixtiyoriga o'tkazilgan.

1919-yilga kelib deyarli barcha shaharlardagi terini qayta ishlash korxonalarini davlat ixtiyoriga olish bo'yicha ishlar dallashtirildi. Dastlab, 9-yanvarda Samarqand viloyati XXK viloyat hududidagi barcha omborlar, transport kompaniyalarini va xususiy qo'llarda bo'lgan barcha charm xomashyolari natsionalizatsiya qilingan deb e'lon qildi[3]. Barcha xalq deputatlari Kengashlari yoki mahalliy xo'jalik va oziq-ovqat bo'limlari barcha teri xomashyosini ro'yxatga olish, ularni bir joyga qo'yish, ularning inventarini tuzish va ma'lumotlarni telegraf orqali zudlik bilan viloyat xalq xo'jaligi kengashiga yetkazishlari qayd etiladi. Dehqonlarda mavjud bo'lgan oz miqdorda xomashyo esa, har bir alohida holatda Iqtisodiy kengash qaroriga ko'ra, belgilangan narx bo'yicha haq to'lagan holda Xalq xo'jaligi kengashi tomonidan olinishi belgilandi. Barcha muassasalar, korxonalar, jamiyatlar va xususiy mulk egalari ushbu buyruq e'lon qilingan kundan e'tiboran yetti kun ichida mavjud xomashyo miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni Xalq xo'jaligi kengashiga taqdim etishlari buyuriladi, yashirgan shaxslar esa inqilobiy sud orqali jazoga tortilishi eslatib o'tiladi. Toshkentdag'i 25 ta zavoddan tashqari respublikaning boshaq hundlari uchidagi 50 dan ortiq korxonalar ham davlat tasarrufiga o'tkazilgandi[1].

1919-yil 15-oktyabrida Turkiston ASSR XXMKning buyrug'i chiqarildi. Buyruqqa asos sifatida TASSR MIQ Prezidiumining qarori keltirilgan va unga ko'ra, "Tashsam" aksiyadorlik jamiyat, Mulla Usmon Saidov, Baxriddin Shamsiboyev, Ganshina Sharevskaya va Romanovlarga tegishli terini qayta ishlash zavodlari davlat ixtiyoriga o'tkazildi[5]. 1920-yilning 18-oktyabrida esa, "Tkach" 1-terini qayta ishlash shirkatiga qarashli Farg'onadagi zavod ham natsionalizatsiya qilingindi[6].

Butun Turkiston bo'ylab zavodlarni davlat hisobiga olish avj oldi. Umuman olganda, 1920-yilda natsionalizatsiya qilingan terini qayta ishlovchi zavodlar soni 83 ta bo'lib, ularda 1577 ta ishchi ishlagan. Monopollashtirilgan zavodlar soni esa, 33 ta bo'lib, ularda 123 ta ishchi faoliyat ko'rsatgan. Bunday tashqari, hunarmandlarning 83 ta terini qayta ishlash korxonalarini natsionalizatsiya qilingan bo'lib, 1623 kishi ushbu ish bilan shug'ullangan. Davlat foydasiga tortib olingan korxonalar osorida 24 ta etikdo'zlik ustaxonasi, 10 ta egarjabduq ustaxonalar ham mavjud edi. [7:49]

Hukumat davlat trestlari tuzib, ushbu korxonalarini faoliyatini davom ettirish uchun harakat qildi, biroq, bu faqatgina zararga ishladi. Ko'plab korxonalar egalaridan tortib olinganidan so'ng qarovsiz qoldi. Ularдан olib qo'yilgan homashyo esa, nazoratsiz qolib, yaroqsiz holga kelgan. Biroq, tortib olingan korxonalarda ish tashkil qilish juda qiyin kechdi. Korxonalarini boshqarish sovet hokimiyatining ixtiyoriga o'tgach sovet xo'jalik boshqaruv organlari ishlab chiqarish jarayonini tashkil etila olmadi. 1920-yil oxiriga kelib, natsionalizatsiya qilingan korxonalarining 53 tasi, monopoliashtirilganlarning 24 tasi, hunarmandchilik ustaxonalarining 79 tasi ishlayotgan edi[7]. Bunday holatlar haqida ko'plab arxiv hijjatlari mavjud. Xususan, guvohlik berishcha, 1922-yil 16-fevraldag'i plenum yig'ilishida so'zga chiqqan Yakubjonov Turkiston sovet hukumatini tangid qilib, "biz bu yerga keng aholi orasidan keldik va shuni ayitsini xohlardimki, Tur MIQ Plenumida quyida qanday voqealar yuz berayotganini aytilish uchun kelganimiz, chunki bu yerda o'tirganlarning ko'pchiligi tepada o'tirib pastdag'i ovozlarini eshitmaydi, nima bo'layotganin bilmaydi." U Suzoq stansiyasidagi omborda 30 mingdan ortiq tortib olingan terilar qarovsiz qolishi natijasida kalamushlarga yem bo'lganini, aybdorlar qattiq jazolanishini kutgan bo'lsa-da, ular 1 oyda qamoqdan chiqib kelganini qayd etadi[8].

RSFSR Xalq xo'jaligi oliy kengashi ko'nchilik boshqarmasi 1921-yil uchun ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini aniq rejalashtirish maqsadida Turkistondagi terini qayta ishlash zavodlari haqida ma'lumotlarni umumlashtiradi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, [9:51] terini qayta ishlash zavodlari soni viloyatlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Korxonalar holati	Samarqand	Farg'ona	Sirdaryo	Yettiuv	Kaspiyorti	Jami
Natsionalizatsiya qilingan	12	5	35	9	2	63
Monopolizatsiya qilingan	14	6	-	13	-	33

Kustar ko'rinishdagi korxonalar	4	4	18	49	8	83
Jami	30	15	53	71	10	179

Jadvalda natsionalizatsiya qilingan korxonalar qatorida monopolizatsiya qilingan korxonalar soni ham keltirilgan. Bunday korxonalar hali egasidan tortib olimmagan bo'lsa-da, ular ishlab chiqqargan mahsulotini erkin sota olmagan, sovet hokimiyati tomonidan belgilangan qatiy narxlar asosida davlat korxonalariga sotishi majburiy bo'lgan. Bunday korxonalar ham keyinchalik to'liq hukumat qo'liga o'tgan.

Turkiston hukumati yirik sanoat natsionalizatsiyasi qilishda erishgan muvaffaqiyatidan ruhlanib, boshqa kichik korxonalar va ustaxonalar, xususan, tegimonlarni ham egalaridan tortib ola boshladи. Tegimonlarda asosan, 4-5 kishi ishlab, un va boshqa donli mahsulotlarni tortish bilan shug'ullangan, ayniqsa, Turkistonda 1918-yilda boshlangan ocharchilik davrida ularning ahamiyati juda yuqori edi. Lekin, sovet hokimiyatining tegimonlar va ulardagi barcha mahsulotlarni tortib olishi ocharchilikning oshishiga xizmat qildi xolos. Non monopoliyasi, oziq-ovqat razverstkasi sharoitida aholi qo'lida oziq-ovqat qolmadи, lekin, tortib olingan yemishlar ayrim hollarda omborlarda qolib ketdi va yaroqsiz holga kelib qoldi. Taqsimlash va narx belgilash erkin bozor qoidalari asosida emas, davlat tomonidan belgilanishi iqtisodiy hayotni ham, ijtimoiy ahvolni ham butkul izdan chiqargandi.

1918-yil 19-sentyabrdan Samarqand oblast deputatlar soveti yig'ilishi qaroriga asosan viloyat xalq xo'jaligi kengashining Miroshnichenko, Gazarov va Petrosovlarining "Naxichevan" shirkatiga qarashli tegimonlari barcha jihoz va binolari, yer uchastkalari bilan birga natsionalizatsiya qilish to'g'risidagi buyrug'i e'lon qilindi[3]. 1919-yilning 5-aprelida esa Toshkent shahri ijroiya qo'mitasi buyrug'i bilan Fisher va Shoraxmatboyevga qarashli tegimon davlat hisobiga o'tkazildi[10].

Shu yili bahor oxiridan boshlab tegimonlarni ommaviy ravishda davlat tasarrufiga o'tkazish boshlandi. Birinchi navbatda o'lkanimeng eng katta shahri Toshkentning eski shahar qismidagi barcha tegimonlar (urib yanchadigan va ezib yanchadigan) tortib olinди. 1919-yil 19 iyun kuni Toshkentning Eski shahar tumani ijroiya qo'mitasi tomonidan eski shahardagi barcha tegimonlarni natsionalizatsiya qilish to'g'risidagi maxsus qaror chiqarildi[10]. Qarorga ko'ra, jami 193 kishiga tegishli 385 ta tegimon davlat foydasiga tortib olinganini kishimiz mumkin. Ushbu tegimonlarning 114 tasi Shayxonoxurda, 98 tasi Sebzor dahasida, 82 tasi Beshyog'ochda va 91 tasi Ko'kchada joylashgan. Tegimonlarga qo'shib, ularga tegishli mol-mulk va asbob-

uskunalar ham tortib olinди, unda ishlovchilar esa, ish joylarini tashlab ketmasliklari buyurildi. Eski shahar uy-joy komissiyasi bo'linmasiga esa, zudlik bilan ushbub tegimonlarda joylashgan mulk va jihozlarni inventarizatsiya qilish va ro'yxatlarini tuzishni boshlash buyurildi. Bunday tashqari, mulk egalarining o'z mulklarini sovetlar qo'liga tushmasligi uchun buzish, yo'q qilishga harakatini oldini olish maqsadida qabul qilish va ro'yxatlarini tuzish tugagunga qadar barcha tegimonlarning sobiq egalarini inqilobiy qonunchilikning qat'iy mas'uliyati ostida xalq mulkini butunlay buzilmagan va daxlsiz saqlashga majburligi belgilab qo'yildi.

Xulosa va takliflar. 1918-1920-yillarda Turkiston ASSRda sovet hokimiyatingin sanoat va iqtisodiyot sohasidagi siyosati keskin va majburiy karakter kasb etdi. Yirik sanoat korxonalar bilan bir qatorda, kichik ishlab chiqarish va hunarmandchilik ustaxonalar ham bosqichma-bosqich natsionalizatsiya qilindi. Bu siyosatning asosiy maqsadi ijtimoiy mulknini kengaytirish, davlat monopoliyasini kuchaytirish va xususiy tadbirdorlikni cheklash bo'lди.

Birinchi bosqichda yirik korxonalar davlat ixtiyoriga o'tkazilib, kichik ishlab chiqarish faoliyatiga e'tibor qaratilmagan bo'lsa, keyinchalik sovet hokimiyati kichik korxonalarini ham natsionalizatsiya qilish siyosatini kuchaytirdi. Bu jarayonda, ayniqsa, mahalliy millat vakillariga tegishli kichik ustaxonalar va korxonalar ko'proq zarar ko'rди. Davlat tomonidan qo'llanilgan iqtisodiy bosim va mulkning ommaviy tortib olinishi natijasida mahalliy tadbirdorlarning iqtisodiy faoliyatini izdan chiqdi.

Hunarmandchilik sohasidagi natsionalizatsiya jarayoni alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu sohaning rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'ldi. Sovet hokimiyati hunarmandchilik ustaxonalarini davlat monopoliyasiga o'tkazishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu siyosat o'z samarasini bermadi. Chunki hunarmandlar o'z mulklarini davlatga topshirishni istamadi, ko'pchilik korxonalarini yopib qo'ydi yoki faoliyatni to'xtatdi.

Natijada, 1920-yillarga kelib, natsionalizatsiya qilingan korxonalarning katta qismi faoliyatini to'xtatdi yoki zararga ishladi. Sovet boshqaruv organlari ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil eta olimgan. Bu esa iqtisodiy pasayish va iqtisodiy tizimning barqarorligini zaiflashtirishga olib keldi. Mahalliy aholi va tadbirdorlar orasida sovet hokimiyatiga bo'lgan ishonchni susaytirib, iqtisodiy ijtimoiy tanglikni kuchaytirdi.

ADABIYOTLAR

- O'z MA, 17-fond, 1-ro'yxat, 33-yig'majild, 58v-bet.
- O'z MA, 25-fondi, 1-ro'yxat, 49-yig'majild, 348-bet.
- Рабочий контроль и национализация промышленности Туркестана (1917-1920 гг.). Сборник документов. Под редакцией к.и.н. Воскобойникова Э.А. Государственное издательство УзССР, Ташкент. 1955 г. 170-бет.
- O'z MA, 27-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 21-bet.
- O'z MA, 25-fond, 1-ro'yxat, 157-yig'majild, 37-bet.
- O'z MA, 27-fond, 1-ro'yxat, 1243-yig'majild, 473-bet.
- O'z MA, 25-fond, 1-ro'yxat, 522-yig'majild, 49-bet.
- O'z MA, 17-fond, 1-ro'yxat, 86-yig'majild, 58-bet.
- O'z MA, 25-fond, 1-ro'yxat, 516-yig'majild, 51-bet.
- O'z MA, 25-fond, 1-ro'yxat, 194-yig'majild, 11-bet.



Bahridil ERGASHEVA,

Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

E-mail: bahridilergasheva5@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD N.Narziyev taqrizi asosida

AVESTODA QIZ BOLA TARBIYASIGA OID QARASHLAR

Annotatsiya

Bugungi kunda dunyoda axborot almashtinuv tezlashib, yer yuzidagi xalqlarning o'ziga xos bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyati yo'qolib borish arafasida turibdi. Aynan shuning uchun qadimiy manbalarda xalqimizning o'zligini ko'rsatuvchi jihatlarini ildizlarini aniqlash va uning boy tajribasini qayta amaliyotga tadbiq etish kunning dolzarb muammosidir. Mazkur maqolada zardushtiyalarning muqaddas, kitobi qadimiy manba Avestoda qiz bola tarbiyasiga xos usullarning umumiy tavsiyi bayon etilgan. Unga ko'ra fikr, so'z va amal tarbiyasining qiz bola tarbiyasida diniyahloqiy, jismoniy, o'qib o'rghanishda ahamiyati tarixiylik, mantiqiylik, umumi yondoshuv, analiz va sintez, qiyosiy taxlil, kuzatuv, intervju, ijtimoiy so'rovnomaga kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan holda olib berildi.

Kalit so'zlar: Avesto, fikr, so'z, amal, tarbiya, din, axloq, zardushtiylik, suv, madaniyat.

VIEWS ON THE EDUCATION OF GIRLS IN THE AVESTA

Annotation

Today, information exchange in the world is accelerating, and the material and spiritual culture of the peoples of the world are on the verge of disappearing. That is why it is an urgent problem to identify the roots of the aspects that indicate the identity of our people in ancient sources and to re-apply its rich experience into practice. This article describes a general description of the methods specific to the education of girls in the ancient source, the sacred book of the Zoroastrians, the Avesta. History, logic, a general approach, analysis and synthesis, comparative analysis, observation, interview, and social questionnaire revealed the significance of the training of thought, word, and action in the education of girls in religious-moral, physical, and educational aspects.

Key words: Avesta, thought, word, deed, upbringing, religion, morality, Zoroastrianism, water, culture.

ВЗГЛЯДЫ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕВОЧЕК В АВЕСТЕ

Аннотация

В мире ускоряется информационный обмен, а уникальная материальная и духовная культура народов земли находится на грани исчезновения. Именно поэтому выявление истоков аспектов идентичности нашей нации в древних источниках и реанимация ее богатого опыта является актуальной проблемой современности. В данной статье дано общее описание методов воспитания девочек в Авесте, священной и древней книге зороастрийцев. По его мнению, выявлено значение воспитания мысли, слова и действий в религиозно-нравственном, физическом, чтении и обучении девочек: историчность, логика, общий подход, анализ и синтез, сравнительный анализ, наблюдение, интервью, социальный опрос. с широким использованием таких методов исследования.

Ключевые слова: Авеста, мысль, слово, действие, образование, религия, этика, зороастризм, вода, культура.

Kirish. Serfarzand o'zbek xalqi, farzandi dunyoga kelmasidan oldin, uni barkamol qilib tarbiyalash haqida qayg'uradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uzoq o'tmishga ega xalqimizning farzand tarbiyasi borasidagi tajribalari ham, o'zi kabi qadim ildizlarga ega. Ma'naviy qadriyatlari esa o'zida ko'proq ahloqiy me'yornarni birlashtirib, kishilarning axloqiy xatti harakatlarini nazorat ostiga oladi [3]. Bu ahloqiy me'yorlar farzandlarga oilada turli tarbiya usullari orqali singdirib boriladi.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyati, urf-odati, qarashlaridan xabar beruvchi, muqaddas kitobi "Avesto" bo'lgan zardushtiylik, eng qadimgi dinlardan biri edi va u islomga qadar O'rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan [9]. Tarbiya-jismoni, ruhiy, ma'naviy sifatlarini rivojlantirgan holda, insonda ish-hunar, odob-ahloqni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish amallar majmui [17] hisoblanib, uning a'llo natijasi esa jamiyatning rivojiga asosiy turtki hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlii. Avestodagi muqaddas hisoblangan unsurlar, ularga bo'lgan munosabatni davlat siyosati darajasiga olib chiqqan qozi haqida, Abu Bakr Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida "Sa'id ibn Xalaf al - Balxiyni ikki yuz o'n uchinchi yil jumod al - avval oyining oxirida (16 avgust 828) qozilikka taninladilar. Bu kishi qozilikni shunday olib bordiki, xudoysi taoloning yaratgan bandalariga adolat, insof va shafqat qilish borasida uni misol qilib ko'rsatar edilar. U yaxshi qonun - qoidalar o'rnatdi. Jumladan, toki kuchlik kishi zaif kishiga zulm o'tkazmasin uchun bu to'g'onlarni qurdirib Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni u kishi asoslagan [7]" deya guvoxlik beradi. Xalqimizning suvning muqaddasligi haqidagi qarashlarini, tabiiy ne'matlarga nisbatan munosabatini ushbu dalil asosida yoritib beradi. Zardushtiyalar

tasavvuriga ko'ra, moddiy olam to'rt muqaddas unsur – o't, tuproq, suv va havodan tashkil topgan. Shu bois Axuramazda yaratgan ne'mat sifatida ularni pok saqlashgan va ulardan oqilonaga foydalananib kelishgan [6]. Bu bevosita xalqimizning suv bilan bo'lgan munosabatini tarbiya jarayoniga faol kiritganini isbotlaydi.

Qadim Turon diyorida yashovchi xalqlar haqida xabar beruvchi Avestoni anglash, undagi ma'lumotlarni insoniyat ma'naviy boyliklari qatoriga hammaga tushunrali tilga tarjima qilish va yetkazish 18-yuzillardan boshlanadi. Bu borada jonbozlik ko'rsatgan olim fransuz olimi Anquatal Dyuperron sanskrit tilini o'rganadi va bu mamba 1771 yili fransuz tilida nashr etiladi [19]. Avestoni o'rganish barobarida u bu manbani "qalb pokligini tarannum etuvchi [5]" deya ta'rif beradi. Qadimgi eron tillari, zardushtiylik bo'yicha mutaxassis, Britaniyalik olima Mery Boyce Avestoning qadimiyligi haqida fikr yuritar ekan, 18 yuzyllikning so'ngiga qadar o'rganilmagan, jamiyatga noma'lum kitoblar safiga kirishini [1] va uning saqlanib qolgan eng qadimiy matnlari milodiy 1323 yillarga to'g'ri kelishini [20] ta'kidlaydi. Keyinchalik bu ishni Fridrix Shpigel, o'zbek olimlaridan Asqar Mahkam, Mirsodiq Ishoqovlarning tarjimalari asosida, Avesto g'oyalarini o'rganish uchun zamin yaratildi.

Hamidjon Homidov o'zining "Avesto fayzlar" kitobida zardusht g'oyalari Turon, Eron, Yunon xalqlarining tafakkuriga chuqr singib borganligini, shu asosda poklik va rostgo'ylik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy ahloq shakllanganligini [18] takidlaydi. Tadqiqotchi Muzaffar Esanov esa 20-yuzyllikning 70-yillardan Baqtriya va Marg'iyonada olib borilgan arxeologik izlanishlar zardushtiylikning ildizlari otashparastlikka borib taqalishini, otashparastlikning ildizlari esa eneolit va bronza davri arxeologik yodgorliklariда o'z ifodasini topganini ko'rsatishini [13] inobatga olib, uning g'oyalarini ildizlari chuqr ekanligiga ishora beradi. Akademik

Anatoliy Sag'dullayev arxeologik yodgorliklarning qadimiy hudud nomlarini aniqlashda yordam bergan holda unda qadimgi geografik tushunchalar: daryolar, tog'lar, qadimgi mamlakatlar ro'yxati ko'plab uchrashini [16] qimmatli manba sifatida aytib o'tadi.

Taniqli elshunos olim Adham Ashirov zardushtiylik dini qadimda o'tmish ajoddolaramizning hayotidagi asosiy diniy e'tiqodlaridan biri bo'lish bilan birga islam dini kirib kelgandan keyin ham xalqimizning turmush tarzida ham o'z izlarini saqlab qolganligini va hattoki xalqimizning bugungi oila-turmush marosimlarida ham tadbiq etilishini [10] dalillaydi. Shu bilan birlgilikda oilaviy munosabatlar, yigit va qizning nikoh yoshlar, turmush qurib, oilali bo'lish, farzandga, tabiatga bo'lgan munosabatni ham alohida o'rganib chiqqan holda "urf-odat va marosimlar qonunlari majmui [10]" deya xulosa beradi.

Yana bir elshunos olima Barno Ubaydullayeva zardushtiylarda oila odobi, odatda ota-onani xurmat qilishga o'rgatishdan boshlangan [11] deya xulosa beradi. Shuningdek, bolalarga ta'lim berish shakllarini uch qismiga 1) diniy-axloqiy tarbiya, 2) jismoniy tarbiya, 3) o'qish va yozishga o'rgatish bosqichlariga bo'lib o'rganadi. Nilufar Kosanova o'zining "Avesto xalq pedagogikasining qadimiyan manbasida sifatida" nomli maqolasida esa zardushtiylar ta'lim usullarini og'zaki taqqidot, vizual, amaly va o'zini o'zi tarbiyalash kabi usullardan foydalangan [15] deya ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada umumiy yondoshuv, mantiqiylik, tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy taxlil, kuzatuv, intervyu, ijtimoiy so'rovnomaga kabi tadqiqot usullaridan keng foydalaniildi. Ushbu maqolani tayyorlashda mavzuga oid bo'lgan asosiy manba bo'lgan Avestoda qiz bola tarbiyasiga oid bo'lgan bandlari asosida bugungi kunda saqlanib qolgan jihatlarini ajratib olindi va tasniflandi.

Tahsil va natijalar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"-bu din asoslarini aks ettiruvchi eng qadimiy mifologik qatlamlarga hamda bronza asri, temir asrining boshlari (miloddan avvalgi II ming-I ming-yillik boshlari) ga oid tarixiy voqeiliklarni o'zida mujassam etgan [12]. Ya'ni, ajoddolaramizning olam va undagi jarayonlarning o'zaro munosabatiga oid tafakkurining maxsulidir. "Avesto"-tarixiy geografiyaga oid turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oldadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" nafaqat diniy kitob balki unda o'sha davr ijtimoiy hayoti, jamiyat tuzilishi, moddiy olam haqidagi falsafiy qarashlar mazmuni, kasbning inson faoliyatidagi o'mi, ayollarning jamiyatda tutgan o'mi, oila va farzand tarbiyasidagi qarashlarini o'z ichiga oladi [15]. Avestoda avvalo tarbiyachining o'zi tarbiyali bo'lishi targ'ib etiladi. Unda "yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarini teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi [8]" deyiladi. Ya'ni agar tarbiya beruvchining o'zi har taraflama mukammal bo'lmasa, fikrda, so'zda, amalda ezgulikni ko'zlamasa, bunday inson yomon tarbiyachi hisoblanadi. Ayollarning xushfe'l, o'z eriga itoatkor bo'lishi oilada xush qabul qilinuvchi odatlardan biri sanalgan. Mana necha yuz yillilar o'tibdi, bu haqiqat o'zgarmagan. Ya'ni oиласда erxotinining o'z vazifasi bo'lsa, har kim o'z vazifasini sidqidildan ado etsa, arning mavqeい yuqori bo'lsa bu oilalar olqishlangan [8]. Bu kabi sog'lom muhit hukm surgan oilada albatta sog'lom farzandlar, har taraflama yetuk inson bo'lib rivojlanishi ko'zda tutilgan. Tabiiyki, oilada bunday muhitni yaratish, er-xotinga ham teng miqdorda mas'uliyat yuklaydi. Shuning uchun ham oilada qiz farzand bo'lsa, u avvalo oilaning kattaligiga xurmat shakllanishiga, ota, aka-ukalariga extiyotlik va xushfe'lilik bilan muomila qilishga o'rgatiladi.

"Avesto" boshqa diniy kitoblar kabi xarakterga ega bo'lib, odam va olam munosabatlari, shaxs faoliyati haqida juda boy ma'lumotlar beradi [14]. insonning yer yuzidagi yashami davrida, tabiat bilan o'zaro munosabatini tartibga soladi. Oilada qiz bola dunyoga kelar ekan, uni tarbiya qilishda fikr tarbiyasi, so'z tarbiyasi, amal tarbiyasiga jiddiy qaralgan. Suv, havo, tuproq, olov e'zozlanib ularni nafaqat ish bilan xatto fikr bilan ham bulg'ash ta'qiqlanganligi [15] bois, avvalo bu qoidalari qizlarning yoshligidanoq ongiga singdirib boriladi. Agar bolaning qo'lidan yeyayotgan noni tushib ketsa, avvalo oila kattalari o'rnak sifatida o'zlarini birinchi qo'liga olib, o'pib, peshonalariga suradilar [21]. Bu orqali bolaning tafakkurida bu ne'mat aziz ekanligi haqidagi tushuncha paydo bo'ladi va keyin o'zi ham buni qayta takrorlash asnosida ezgu amallari safiga kiritib boradi.

Avestoda aytib o'tilgan qiz ayollarga taalluqli bandlarini o'rganib, o'zbek oilalari qiz bola tarbiyasida zamонлар osha yashab kelgan jihatlari asosida quyidagicha tasniflash mumkin.

Fikr tarbiyasi: Bunda qizlarga bolalik davrlaridan oq ijtimoiy lashuv jarayonida atrof muhit bilan, tabiat bilan bo'lgan munosabatda extiyotkorlikka o'rgatadi. Har bir tarbiya katta tajriba asosida, u xoh jismoniy, xoh ruhiy bo'lsin, avvalo chuqr tafakkur bilan, uzoq va puxta o'ylangan holda qizlarga singdirib boriladi. Misol uchun muqaddas unsurlardan biri bo'lgan suv bilan bo'lgan munosabatda, buvi yoki ota-onalar tarafidan o'z farzandlariga uch to'rt yoshidan boshlab suv – hayot davomiyligi, ya'ni tirkilik asosi ekanligi tufayli doimiy ravishda suv va suv havzalari hisoblangan ariqlar, kanallar, daryolar tozaligi haqida qayq'urish insonning muqaddas burchi ekanligi tarbiyaning turli vositalari asosida singdirib borilgan [6]. Erta tongdan o'zbek oilalari xovli, ko'chalarni supurish odat tusiga kirganligi sababli, qizlardan supurayotgan paytda suv yuzasiga chiqindilarni tashlamaslik qat'iy talab qilinadi. Xatto bu ishni amalga oshirgan qizlar tarbiyasz hisoblanib, ota-onasiga nisbatan salbiy fikrlar bildiriladi. Bu kabi holatlar sodir bo'lmasisligi uchun, qiz bolaga avvalo nazariy jihatdan bilim albatta berish shart. Nazariy bilimlar esa amaliyot orqali sekin asta mustaxkamlanib boriladi.

So'z tarbiyasi: Ijtimoiy lashuvning poydevori bo'lgan muloqot, insonning jamiyatga moslashuvida, odamlar orasida obro' topishida sababchi bo'lgan go'zal xulq shakllaridan biridir. Qizlardagi so'zlashuv odobi, nafaqat o'zining, balki oilasining ham ma'naviy muhitini ko'rsatib beruvchi muhim belgidir. Salomlashishdan tortib, to atrofdagi insonlar bilan muloqot davomida, so'zlarining go'zal, mazmunli bo'lishi, ortiqcha zarda yoki hashamdan holi bo'lishi so'z tarbiyasingin asosiy me'zonlaridan biri hisoblanadi. Zardushtiylik dinnинг qoidalari ham so'z va amali bilan o'rganishda [8] so'zning, ayniqsa, rost so'zlarining qadriyuqo bo'lib, tarbiyaning bosh me'zonlaridan biridir. Zardushtiylik dinining qoidalari dastlab og'izdan og'izga o'tib, yod olingani, matnlarni taqqid etish shakllari: an`analar, afsonalar, maslaxat, tarbya, qo'shiqlar [15] bo'lgani uchun ham, o'zidan kattalarning gaplariga qulog tutish, odat sifatida shakllangan. Xalqimiz orasida bug'doy noning bo'imasin, bug'doy so'zing bo'lsin, yaxshi gap jon ozig'i, anjom uy ziynati, so'z inson ziynati kabi maqollar balki shundan shakllangandir.

Amal tarbiyasi: Insonning harakatlari, bajarayotgan ishlari, uning so'zlaridan ko'ra haqqoniy hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan fikr, so'z tarbiyasi me'yorida shakllangan bo'lsa, tozalik, uy yumushlari, taom tayyorlash, mexmon kutish, muomila madaniyati va boshqalar amaly harakatlari o'zining ijobji sifatlarini namoyon etadi. Zardushtiylar odatiga ko'ra bolalarga yetti yoshdan tarbiya berilib, qizlarga yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlash, matolar to'qish, liboslar tikish o'rgatilib [10], qaysidir ma'noda bu hunarlarni egallagani belgisi sifatida o'n besh yoshdan belbog' bog'lab, sudra kiyish shari hisoblangan. Qizlarni katta hayotga tayyor ekanliklarining belgisi sifatida alohida marosim sifatida o'tkazilgan bu marosim "kamarbastan" deb atalib, unda bog'lanadigan oq qo'yning 72 tolali yungidan iborat belbog', aynan ayol mo'bad tarafidan tayyorlanishi [8] ham bejiz emas. Bu bir tarafidan qiz-ayollarga hunar o'rgatishning ahamiyatini bildirs, ikkinchi tarafdan esa jamiyatda mavqeい yuqori ekanimidan dalolatdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki, avvalo qiz bola tarbiyasi hamisha asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki kelajak avlodni tarbiyalash ayollar zimmasiga yuklanar ekan, birinchi galda ularning o'zlarini na'munali, intizomli, bilmli, keng tafakkurli bo'lishi kerak. Shundagina bolalar ulardan o'rnak olgan holda ulg'ayadi. Avestoda tarbiya usul, shakllarini o'rganan ekanmiz, uning ildizlarini zardushtiylik dini paydo bo'lischidan ham oldinroqdan qidirishimiz zarur. Sababi, bir tarbiya usuli qonun qoida sifatida jamiyatga taqdim etilar ekan, u avvalo uzoq yillardan tajribadan o'tgan va aniq, rad etib bo'lmash natijalariga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun Avesto matnlaridan joy olishdan avval, unda aks etgan xulq-atvor qoidalari uzoq tajriba va sinalgan natijaga ega. Bunda dono xalqimizning aql-zakovati, farzand tarbiyasi borasidagi dono xulosalar asos bo'lgan deya olamiz. Tarbiya usullarining asosi hisoblangan fikr, so'z va amal tarbiyasi, diniy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirishda, jismoniy holatini yaxshi saqlashda, o'q-o'rganishning ahamiyatini anglashda asos bo'lib xizmat qiladi. Taklif sifatida esa ajoddolaramizning boy tajribalarini yana bir bor o'rganib chiqqan holda, maktablarda tarix, tarbiya fanlarining mavzulariga mos ravishda yoritib, misollar bilan berilsa, o'quvchilarda xozirgi ularga aytileyotgan o'g'ilarning necha ming yillik ildizga ega ekanini yanada chuquroq anglaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Boyce M.. A history of zoroasrianism. Leiden. 1975. E.J.Bril. p. 1
2. Boyce M.. Zoroastrians. Their religion, beliefs and practis. London. Routledge&Kegan Paul. 3 p.
3. Qoraboyev U.. G*.Soatov. O'zbekiston madaniyati. Toshkent. Tafakkur bo'stoni. 2011. 14 b.
4. Akramov X.. Avestoda sog'lom avlodni tarbiyalashning sotsial jihatlari xususida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023 yil 1-soni. 887 bet.
5. Zend Avesta. Traduction de Duperron. Paris 1771. 31 p.
6. Аширов А.. Ўзбек маданийтида сув. Тошкент. 2020. Академнашр. 89 б.
7. Наршахий А.. Бухоро Тарихи. Тошкент.2022. Anorbooks. 18 б.
8. Авесто. А.Махкам таржимаси. Тошкент. Шарқ нашриёти. 2001 й. 14 б.
9. Авесто. Яшт китоби. М.Исҳоков таржимаси. Тошкент. Шарқ нашриёти. 2001 й. 7 бет.
10. Аширов А.. Авестодан мерос маросимлар. Тошкент. 2001. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 26 б.
11. Убайдуллаева Б.. Ўзбек этнопедагогика тенденсиялари. Тошкент. 2018. Академнашр. 62 б.
12. Иброхимов Н. Авесто китоби-тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбай мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. Тошкент. 2000. 4 б.
13. Эсанов М.. Авесто жамиятининг археологик материалларда акс этиши. Diss. Тошкент. 2007. 21 б.
14. Махмудова Н. “Авесто”да таълимий-аҳлоқий қараашлар. Тошкент. 2005. 13 б
15. Махсудова Н.. Авесто халқ педагогикасининг қадимий манбаси сифатида// Academic Research in Educational Sciences. 2022. -№ 3. 830-837 б.
16. Сағдуллаев А.Авесто китоби-тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбай мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. Тошкент. 2000. 35 б.
17. Ўзбек тилининг изохли лугати. Тошкент. 2008. Давлат илмий нашриёти. 678 б.
18. Ҳомидов Ҳ.. Авесто файzlари. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси. 2001. 4 бет.
19. https://en.wikipedia.org/wiki/Abraham_Hyacinthe_Anquétel-Duperron#Report_and_fame
20. https://en.wikipedia.org/wiki/Avesta#cite_ref-FOOTNOTEBoyce19841_5-2
21. Dala yozuvlari. Toshkent shaxri.